

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

«Himoyaga ruxsat etildi»
Filologiya fakulteti dekani, p.f.n.,
dots. Abdullayev K._____

«___» _____ 2018 y.

5120100-Filologiya va tillarni o'qitish (Nemis tili)

Ta'lif yo'nalishi bitiruvchisi

Nizomiddinova Shohsanam

**“Chet tili o'rgatish jarayonida interaktiv
texnologoyalardan foydalanish (nemis tilini o'qitish
misolida)” mavzuidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

«Himoyaga tavsiya etildi»

BMI rahbari:_____

Nemis va fransuz tillari kafedrasi mudiri

p.f.n dotsent S.Saydaliyev

_____ Z.Tursunov

«___» _____ 2018 й.

Namangan-2018

**CHET TIL O'RGATISH JARAYONIDA INTERAKTIV
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH**

KIRISH

ASOSIY QISM

**1-BOB. CHET TIL O'RGATISH JARAYONIDA PEDAGOGIK
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH**

- 1.1. Pedagogik texnologiya tushunchasi va uning mohiyati
- 1.2. Pedagogik texnologiyalar va ularning turlari

**2-BOB. CHET TIL O'RGATISH JARAYONIDA INTERAKTIV
TEXNOLOGIYALAR**

- 2.1. O'qitishning interfaol usullari, ularning xususiyatlari va qo'llash metodikasi
- 2.2. Zamonaviy axborot –kommunikatsiya texnologiyalar muhitida o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorlik shakllari

**3-BOB. OG`ZAKI NUTQ MALAKALARINI RIVOJLANTIRISHDA
INTERAKTIV TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH**

- 3.1. Muammoli o'qitish texnologiyalaridan foydalanish
- 3.2. Fikrni og`zaki bayon qilishni o'rgatishda Keys Stadi texnologiyasini qo'llash

XULOSA

Foydalanilgan adabiyotlar

Jahonda xorijiy tillarni o'rganish va o'rgatish turli soha vakillarini jalb etib, ularning hamkorliklari taqozo etmoqda. Jalon amaliyotida o'quvchilarining horijiy tillar bo'yicha kasbiy kompetentligini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashga doir innovatsion faoliyatini modernizatsiyalash alohida ahamiyatga molikdir. O'zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasining Ta'lif va fan sohasini rivojlantirish bandida "Uzluksiz ta'lif tizimini yanada takomillashtirish sifatli ta'lif xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlash tayyorlash siyosatini davom ettirish" kabi muhim vazifalar belgilandi. Biz bu vazifalarni amaliy jihatlarini quyidagi qaror va farmonlar orqali ko'rishimiz mumkin. O'zbekiston respublikasi prezidentining 2017- yil 7-fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risidagi" PF 4947- son farmoni 2017- yil 20- apreldagi "oliy ta'lif tizimini yanada rivojlantirish chora – tadbirdari to'g'risidagi" Pq 2909-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 8-may "uzluksiz ta'lif tizimining chet tillar bo'yicha davlat ta'lif standartlarini tasdiqlash to'g'risidagi" PQ 1875-son qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy- huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirilgan. Butun jahon hamjamiyatiga munosib o'rinn egallashga harakat qilayotgan xalqimiz uchun horijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyati juda katta. Xorijiy tillarni tez va oson o'rgatish uchun ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi:

Ta'lif jarayonini uni rivojlantirish va o'zgartirish o'qituvchi va sinf o'quvchilarining o'zaro ochiq muloqoti orqali samarali bo'ladi. Ta'lif jarayonida qo'llaniladigan metod va texnologiyalar butun bir dars jarayonini va o'quvchilarni faolligini o'z navbatida oshiradi. Butun fikr va diqqat dars jarayoniga qaratiladi. Pedagogik texnologiyalar

o'quvchilarga yangi bilim berish, ko'nikma hosil qilish, o'quvchilarning ijodiy qobilyatini rag'batlantirishda katta ahamiyatga ega. Yangi tamoyilar asosida rivojlanayotgan ta'lif tizimini yosh avlodni barkamol, ma'naviy yetuk inson sifatida shakllantirishga qarata olgandir. Hozirgi kunda ta'lif tizimida jumladan chet tili darslarida ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llashning nazariy hamda amaliy asoslarini yaratish lozim. Ta'lif jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni olib kirish "kadrlash tayyorlash milliy dasturining ikkinchi bosqich vazifalaridan biridir". Axborot oqimi keskin darajada ortgan bir davrda har bir shaxs shu yangiliklarni qabul qilishga va uni o'rghanishga tayyor bo'lishi kerak. Bu borada pedagogik texnologiyalarning qo'llanishiga yo'l ochilishi maqsadga erishish uchun eng samarali yo'ldir. Shu sababli chet til darslarida hozirgi kunda yangi ilg'or pedagogik texnologiyalardan, interfaol va interaktiv metodlardan foydalanimoqda. Bu esa o'z navbatida chet tilini o'rghanish va o'qitish jarayonini takomillashtiradi.

Axborot kommunikatsion texnologiyalari vositalardan foydalanib, o'tilayotgan mashg'ulotlar zamonaviy texnik vositalar va anjomlar bilan jihozlangan fan kabinetlarida olib boorish yaxshi samara beradi.. Eng asosiysi pedagoglarning muntazam o'z ustida ishlashi va darsni zamonaviy interaktiv, pedagogik texnologiyalaarga boy tarzda o'tishi, o'quvchilarni fanga bo'lgan, o'r ganilayotgan tilga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi. O'quvchilarga chet tilini o'rgatishda turli xil ko'rgazmali qurollar va metodlardan foydalangan holda faoliyat olib borilsa, sezirarli samara beradi. Natijada esa o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichi ko'tariladi. Ko'p hajmli axborotning quruq va zerikarli tarzda yetkazilishi o'quvchilarning zerikishi va darsni yaxshi tushunmasligiga olib keladi. Bu muammoning yechimi biz interaktiv vositalar va interfaol usul, texnologiyalar orqali hal qilishimiz mumkin. Interaktiv vositlar, pedagogik texnologiyalar o'quvchilarning mavzularni tez o'zlashtirishiga yordam beradi. Egallagan bilimlarini amaliyatga qo'llashga yordam beradi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari:

Bitiruv malakviy ishda pedagogik texnologiyalarga oid qo'llanmalar yaratish ma'lum tavsiyalar va maslaxatlar berish nazarda tutilgan. Shu nuqtai nazardan BMI mavzusi quyidagi maqsad va vazifalardan iborat.

Pedagogik texnologiyalar, ularning kelib chiqish tarixi, turlari va ularni ta'lim tizimida, o'quv jarayonida qo'llash usullari haqida to'liq ma'lumot berish;

Xorijiy mamlakatlardagi chet tillarini o'qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish tarixi haqida ma'lumotlar berish;

Barcha ta'lim tizimida professor-o'qituvchilarning ilg'or pedagogik tajribalarini o'rGANISH, umumlashtirish va bu boradagi tavsiyalarni ishlab chiqish;

Chet tillarini o'rGANISHNING ilg'or pedagogik-psixologik metodlardan foydalanish usullarining mazmun-mohiyatini ochib berish;

O'zbekistonda chet til o'qitish metodikasida texnologiyalardan foydalanish va bu borada qilinayotgan ishlar haqida fikr bayon qilish.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi;

Bolalar ilk darsdayoq chet tilini turli xildagi metodlar ya'ni o'yinlar va shu tarzdagi mashg'ulotlar asosida o'rGANIB, eng avvalo o'qish, yozish, talaffuz qilish, o'zini tanishtirish, sanash, yil fasllari, hafta kunlari kabi boshlang'ich bilimlarga ega bo'ladilar. Bu borada multimedia texnologiyalari va interfaol usullardan foydalaniladi. Nemis tilidagi videosuratlar, multfilmlar, rang-barang rasmlar, qo'shiq va she'rlar bolalarga qo'llanilishi kerak. Dars jarayonida o'quvchilarning holatiga va psixikasiga qarab 3 yoki 4 ta metodlardan foydalanishimiz mumkin. Masalan: keys stadi, nilufar gul, muzyorar, klaster, muammoli texnologiya va hk. Bularning barchasi o'qituvchiga ham o'quvchiga ham til o'rGANISH va o'rgatish jarayonida yaxshi kayfiyat bag'ishlaydi. Yuqorida bayon

qilingan masalalar ilmiy adabiyotlar asosida o'rganib chiqildi, xulosalandi va amaliy tavsiyalar berildi.

Bitiruv malakaviy ishining tadqiqot obyekti va predmeti.

Asosiy tadqiqot manbalari sifatida J.Jalolov "Chet tili o'qitish metodikasi", N. Saidahmedov "Yangi pedagogik texnologiyalar", A. Abduqodirovning "Ta'limga innovatsion texnologiyalar", J.Yo'ldashev, S. Usmonovlarning "Pedagogik texnologiya asoslari", S. Saydaliyevning "Chet til o'qitish metodikasidan ocherklar" darslik va qo'llanmalari asosida zamonaviy pedagogik texnologiyalarning mazmuni, mohiyati, interfaol usullar ularning qo'llanishi o'rganib, tahlil qilib chiqildi.

Bitiruv malakaviy ishining metodologik asosi.

O'zbekiston respublikasi prezidentining asarlari orqali fanni rivojlantirish, uning dolzarb muammolarini ilmiy tahlil etish to'g'risida bidirgan ijtimoiy va falsafiy fikrlari, O'zbekiston respublikasining "Ta'limga to'g'risida"gi qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" bitiruv malakaviy ishimiz uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqot materiali sifatida o'zbek va chet el tishunosh, metodist, psixolog, pedagoglarining ishlaridan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibi.

Bitiruv malakaviy ish kirish, asosiy qisim, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Bitiruv malakaviy ishning kirish qismida ishning dolzarbliji, maqsad va vazifalri, nazriy va amaliy jihatlari va uning ahamiyati haqida fikr yuritilgan. Asosiy qism 3 bob va 6 paragrfdan iborat bo'lib;

Birinchi bob chet til o'rgatish jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish deb nomlanadi. Bu bobda pedagogik texnologiyalar, ularning kelib chiqishi, turlari haqida ma'lumotlar berilgan.

Ikkinchi bob chet til o'rgatish jarayonida interaktiv texnologiyalar deb nomlanadi. Bu bobda chet til o'qitishda interfaol usullar, ularning xuxuiyatlari, qo'llash metodikasi, zamonaviy axborot-komminikatsion texnologiyalar asosida o'qituvchi ba o'quvchilarning hamkorligi haqida so'z yuritiladi.

Uchinchi bob Og'zaki nutq malakalarini rivojlantirishda interaktiv texnologiyalardan foydalanish deb nomlanadi. Bu bobda esa og'zaki nutq jarayonida interaktiv texnologiyalardan foydalanish, muammoli o'qitish texnologiyasi va keys stadi texnologiyasini og'zaki nutqda qo'llash usul va metodlari haqida fikr bayon qilinadi.

1-Bob. Chet til o'rgatish jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish.

1.1 Pedagogik texnologiya tushunchasini va uning mohiyati.

Texnologiya-yunoncha "techne" so'zidan olingan bo'lib, mahorat, san'at va "logos" so'z, ta'limot degan ma'noni anglatadi. (Milliy ensiklopediya) Texnologiya – jarayonlarni amalga oshirish usullari va vositalari haqidagi bilimlar yig'indisi, shuningdek ob'ektda sodir bo'ladigan sifat o'zgarishlar tushuniladi. Ta'lim tizimida o'qitish jarayonining o'ziga xos xususiyatlari tomonlari mayjud bo'lib, samarali natijalarini kafolatlash asosan pedagogik texnologiyalar asosida amalga oshadi. Pedagogikaga oid adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, hozirgi davrda pedagogik texnologiya tushunchasi ta'lim amaliyoti va nazariyasi ilmidan mustahkam o'rinnegallaydi (Saidahmedov, 2003).

Abu Nasr Farobi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoiy, L.N.Tolstoy, Yan Amons Komenskiy, Abdulla Avloniy va boshqalar o'z asarlarida o'qituvchilik kasbi, uning mashaqqatlari, shuningdek, o'qituvchi shaxsida aks etuvchi sifatlar xususidagi qarashlarni yoritish orqali o'zlari ham pedagogik madaniyatga ega ekanliklarini namoyon etganlar. Pedagogik jarayonning mohiyatini anglamagan, bolaga nisbatan chuqur hurmatda bo'limgan shaxs ta'lim- tarbiya samaradorligi va

inson kamolotini ta'minlovchi fikrga ega bo'lmaydi. Ularning pedagogik madaniyatlari negizini bolani tushuna olish, ularga insonparvar munosabatda bo'lishdek ma'sulyat tashkil etadi.

Texnologiya deganda sub'ekt tomonidan ob'ektda ko'rsatilgan ta'sir natijasida sub'ektda sifat o'zgarishiga olib keluvchi jarayon tushuniladi. Texnologiya har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalanib, ob'ektda yo'naltirilgan maqsadli amallarni muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko'zda tutadi. Ushbu tushunchalarni o'quv jarayoniga ko'chiradigan bo'lsak, o'qituvchi pedagogning o'qitish vositalari yordamida o'quvchilarga muayyan sharoitlarda ko'rsatgan tizimli ta'siri natijasida ularda jamiyat uchun zarur bo'lgan va oldindan belgilangan ijtimoiy sifatlarni intensiv tarzda shakllantiruvchi ijtimoiy hodisa, deb ta'riflash mumkin. Ta'riflar nazariyasi bo'yicha bunday ijtimoiy hodisani pedagogik texnologiya desa bo'ladi. Pedagogik texnologiya ijtimoiy zarurat bo'lganligidan dastavval AQSHda 70-yillarda falsafaning bixiviorizm oqimi zaminida yuzaga kelib, boshqa rivojlangan mamlakatlarga tez tarqalib ketdi (Neuner, 2005).

Mustaqillikka erishgan O'zbekiston olimlari horijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy, ijimoiy, siyosiy va ilmiy ma'rifiy aloqalar o'rnata boshladilar. Natijada yurtimizda ilg'or va samarali texnologiyalar kirib kela boshladi. Shular qatori jahondagi progressiv pedagogik texnologiya degan tushunchalar ham kirib, pedagogik jamoatchiligidan fikrini chulg'ab oldi. Oxirgi yillarda Rosiyya O'zbekistonda pedagogik texnologiyani o'rganish yo'lida ancha ishlar qilindi. Pedagogik texnologiyani o'quv jarayoniga olib kirish zarurligini MDHga kiruvchi mamlakatlar ichida birinchilar qatorida har tomonlama ilmiy asoslab bergen quyidagi olimlarni kiritishimiz mumkin: Rossiyalik olim V.P.Bespalkoning fikricha," PT-bu o'qituvchi boshchi bo'lмаган holda pedagogik muvafaqqiyatni kafolatlay oladigan o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayonli loyihasidir" (Tolipov, 2005).

Rossiya olimlaridan V.M.Monaxov: “PT-avvaldan rejalashtirilgan natijalarga olib boruvchi va bajarilishi shart bo’lgan tartibli amallar tizimidir”, - degan qisqacha ta’rifni bera turib, uning asosiy xususiyatlariga e’tiborini qaratadi.”PT- o’quv jarayonini texnologiyalashtirib, uning qayta tiklanuvchanligini hamda pedagogik jarayon ijrochisining sub’ektiv xususiyatlaridan uni ozod qiladi”, deydi (Tolipov, 2005).

M.V.Klarin fikricha, PT- o’quv jarayoniga texnologik yondashgan holda, PTdan belgilab olingan maqsad ko’rsatkichdan kelib chiqib, o’quv jarayonini loyihalashtirishdir.

I.Ya.Larnerning fikriga ko’ra, PT-o’quvchilar harakat etgan o’qitish natijalari orqali ishonchli anglab aniqlanadigan maqsadi ifodalanadi. V.P.Bespalkoning O’zbekistonlik shogirdlaridan Nurali Saydahmedov va Abdurahmon Ochilovlarning fikricha, PT bu o’qituvchining o’qitish vositalari yordamida o’quvchilarga muayyan sharoitda ta’sir ko’rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir.

O’zbekistonlik pedagog olim B.L.Farberman pedagogik texnologiyaga quyidagicha ta’rif beradi: “PTta’lim jarayoniga yangicha yondashuv bo’lib, praktikada ijtimoiy-muhandislik ong ifodasidir. U pedagogik jarayonni texnika imkoniyatlari va insonning texnikaviy tafakkuri asosida standart holga solib, uning optimal loyihasini tuzib chiqish bilan bog’liq ijtimoiy hodisadir”.

Bu ta’riflarni uzoq horijda berilgan ta’riflar bilan solishtirib ko’rish uchun yapon pedagog olimi T.Sakomoto bergen ta’rifini keltiramiz. BMTning nufuzli idoralaridan YUNESKOning ta’rifi bo’yicha, “PT bu bilim berish va uni egallahsha texnika va inson resurslarini o’zaro uzviy bog’liq holda ko’rib, butun ta’lim jarayonini loyihalashda va amalda qo’llashda majmuali yondashuv usulidan foydalanishdir”. Keltirilgan ta’riflarni ilmiy falsafiy nuqtai nazardan tahlil qiladigan bo’lsak, uzoq xorijda berilgan ta’riflar bilan MDX mamlakatlari olimlarining bergen

ta’riflari bir-biriga yaqin kelsa-da, farqi ham anchaligini ko’ramiz. Jumladan, Sakomoto va YUNESKO ta’riflarida majmuali yondashuv tamoyiliga alohida urg’u berilgan. MDX olimlarining PTga bergen ta’riflarida majmui yondashuv eslatib o’tilgani bilan, o’quv jarayonining loyihasini tuzishganda uni mutloq unutib, majmui yondashuv tamoyilining qonun va qoidalariga sira amal qilishmaganini ko’ramiz. Haqiqatda esa, ob’ektiv borliqqa majmui yondashuv tamoyilini yaxshi bilgan kishiga, Sakomoto aytganidek, “PT o’quv jarayonini muayyan bir majmuaga keltirishdir”, degan tushuncha kifoya qiladi. Bu tushuncha orqali PTning boshqa hamma xususiyatlarini, ya’ni maqsadga yo’naltirganligini, bir necha o’zaro uzviy bog’liq bo’lgan qismlardan tashkil topganligini va boshqalarni anglab olsa bo’ladi. Chunki, bu xususiyatlarning hammasi, majmular nazariyasiga binoan, majmui deb nom olgan narsa va hodislarning ajralmas sifatlaridir. Undan tashqari Rossiya va O’zbekiston olimlari “ta’rif” deb aytgamalarining hammasi ham “ta’rif” maqomiga ega bo’lolmaydi.

Ta’rif ushbu nazariyadan kelib chiqib tuzilsa, u haqiqiy hisoblanadi. Biz tahlil qilgan ta’riflar esa, N.Saydahmedov va A.Ochilovlarnikidan tashqari, pedagogik texnologiyaning u yoki bu xususiyatlarni ochib beruvchi yo uning tasnifini ifoda etuvchi tushunchalar yoki ularning omuxtaligidir. Pedagogik texnologiyaning asosiy tushunchasi, so’zsiz, o’quv jarayoniga majmui sifatida yondashishidir. Bunda ta’lim tarbiyada ishtrok etuvchi barcha narsa va hodisalar o’zaro funksional borliqda bo’lib, bir butunlikni, ya’ni pedagogik jarayon majmuini mayyan bir vaqt mobaynida bosqichma-bosqich amalga oshirilishi pedagogik texnologiya deyiladi.

Pedagogik texnologiyaning an’anaviy usullardan asosiy farqi, uning to’la- to’kis majmualari nazariyasi qonuniyatlaridan kelib chiqqanlidigkeitadir. Pedagogik texnologiyaning avvalgi usullardan afzalligi, u ta’lim jarayonini bir- butunlikda ko’rib, ta’lim maqsadi, uning mazmuni, bilim berish usullari va vositalari hamda ta’lim oluvchi va

ta’lim beruvchilarni majmuaga keltirib, ta’lim bosqichalarini loyihalab, ta’lim jarayonini nazorat qilish va ta’lim natijalarini baholash kabi qismlarini o’zaro uzviy bog’lab majmuaga keltirib turib, uning loyihasini tuzishidadir. Uning an’anaviy usullardan keyingi farqi, u talabalarning o’zlariga berilgan bilimini yodlab olib aytib berishiga emas, balki ta’lim va tarbiya jarayonining yakunida amaliy ishlarni bajarishga yo’naltirganligidadir.

Pedagogik texnologiyaning borliqqa ta’lim usullaridan navbatdagi farqi, uning yordamida o’quv jarayonini tashkil etilganda, dars natijasi bilim beruvchining pedagogik maxoratiga bog’liq emaslidigkeitadir. Ilmiy asoslanib, yaxshi loyihalashtirilgan pedagogik texnologiya bo'yicha har qanday o'qituvchi ham, a'lo bo'lmasada yaxshi dars o'tadi. Chunki pedagogik texnologiyani pedagog olim, metodist yoki ilg'or tajribali o'qituvchilar tuzadi, shu bois ularning pedagogik maxorati pedagogik jarayon loyihasida o'z ifodasini topgan bo'ladi. Avvalgidek, “darsdan ko’zlangan maqsadga ob’ektiv sabablarga binoan yetib bo’lmaydi” yoki “kutilmagan omillarga binoan dars buziladi” va shunga o’xshash gaplarga pedagogik texnologiyada o’rin yo’q. Pedagogik texnologiyaning yuqorida qayd etilgan xususiyatlaridan va majmualar nazariyasining qonuniyatlaridan kelib chiqib, unga quyidagi kengaytirilgan ta’rifni beramiz.

PT-bu jamiyat ehtiyojidan kelib chiqib, oldindan belgilangan kishi ijtimoiy sifatlarini samarali shakllantiruvchi va aniq maqsadga yo’naltirilgan o’quv jarayonini majmui sifatida ko’rib, uni tashkil qiluvchi qismlari bo’lgan o’qituvchining o’qitish vositalari yordamida o’quvchilarga ma’lum bir sharoitda muayyan ketma-ketlikda ko’rsatgan ta’sirini nazoratda tutuvchi va ta’lim natijasini baholab beruvchi texnologiyalashgan ta’limiy tadbirdir.

Jahon pedagog tafakkurida ta’lim-tarbiyaga bunday yondashuv yangi emas. XVIII asrdayoq “buyuk didaktika” ning muallifi Yan Amonsk

Komenskiy ta'lif jarayonini “bir usul va narsalar vaqt jihatidan shunday joylashtirilishi kerak ediki”, “butun pedagogik jarayon yaxshi sozlangan soat kabi bexato yurishi kerak” bo'lgan shaklga solmoqchi bo'lgandi. Buyuk pedagog Komenskiy yetmagan orzularga XXI asr pedagoglari yoritib, bu ijtimoiy hodisa pedagogik texnologiya nomini olib, butun dunyo o'qituvchi va pedagoglariga dasturi amal bo'lib xizmat qilmoqda.

Pedagogik nazariyalar yig'indisi hisoblangan pedagogikada katta hajmda nazariy va amaliy bilimlar to'plagan bo'lismiga qaramay, XX asrning ikkinchi yarmigacha mashhur pedagoglarning birontasi qayta tiklanadigan, yangi izdoshlari tomonidan ular o'tgan yuqori samarali darslarni o'zlariga o'xshab o'tish imkonini beradigan pedagogik jarayon andozasini ishlab chiqishmagan. Buning boisi, mashhur pedagoglar usuli tarkibida o'zlarining shaxsiy sifatlari yetakchi o'rinni egallaganligidadir. Ma'lumki, jamiyat tarkibida mashhurlikka davogar buyuk shaxslar juda ham oz. Bizga esa ular har bir mакtabda, har bir litsey va kollejda, har bir sinf va dars xonalarida kerak. Bunga yetishishning birdan-bir yo'li mashxur pedagoglarning darsni pedagogik texnologiya shakliga solib, loyihasini tuzish va ko'paytirishdir.

Texnologik yondashuv ishlab chiqarishdan olingan bo'lib, unda minglab texnologik jarayonlar loyihashtirilgan. Ular ishlab chiqarishda kerakli natijalarga erishish hisoblanadi. Bu texnologiyalarni qo'llash vaqtida hudud va ularning ijrochisi o'zgarsa ham, kerakli mahsulot chiqaveradi. Ta'lif-tarbiya jarayonida ham shunga erishish uchun pedagogik texnologiya ishlab chiqildi. Bu ish birinchi bor AQSH olimlari B.Blum, L.Kratvol, N.Granlund, Dj.Kerrolla va boshqalar harakati natijasida amalga oshdi. Pedagogik texnologiya umuman olganda, reproduktiv dars berishga asoslangan bo'lib, undagi o'quv jarayoni o'quvchilarga tipik holatlardagi harakatlarni egallahsga yo'naltirilgan. Pedagogik texnologiyadagi reproduktiv bilim berish jarayonida dars aniq bo'laklarga bo'linib, har bir bo'lagida o'quvchilar bilishi shart bo'lgan natijalar ko'rsatildi. O'quv

materiallar dars maqsadidan kelib chiqib, modullarga bo'lingan bo'ladi. Har qaysi modulga test savollari tuziladi. O'quv jarayoni aniq savollarga konkret javoblar topishga mo'ljallangan bo'lib, savollar va javoblar o'zaro uzviy bog'liqlikda bo'lishi natijasida bir butunlikni, ya'ni majmuini tashkil qiladi.

Pedagogik texnologiyada reproduktiv usul qatorida izlanuvchi tadqiqot va boshqa usullar ham ishlataladi. Mustaqil O'zbekistonning erkin fuqarolarini shakllantirishda xalq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan ma'lum bilim hajmga ega mutaxassis hamda turli muammolarga duch kelganda, mustaqil izlanib, ularni hal qilib ketadigan tadbirkor kishilarni tarbiyalashda tipik xarakatlarga, reproduktiv va nostandart vaziyatlardan yo'l topib, chiqib ketishga o'rgatuvchi tadqiqot usullari mos tushadi. Bizga zarur bo'lgan usul ushbu ikki an'anaviy usullar qotishmasidan hosil bo'lib, texnologiyalashtirilgan integrativ usuldir. Uni pedagogik texnologiya deyilmoqda. O'quv jarayoni texnologiyasi alohida olingan bitta darsga, bitta mavzuga, yoki o'quv predmetining bir qismiga va butun o'quv predmetiga tuzib chiqilishi mumkin. Pedagogik texnologiyani yaratish tamoyillarining birinchisi muayyan dars, mavzu, qism, o'quv predmetidan kutilgan asosiy maqsaddan kelib chiqib, darsni, yoki usul predmetini modullarga ajratib har bir moduldan kutilgan maqsadni va modular ichida hal qilinishi lozim masalalar tizimini aniqlab olish; uchinchisi modul ichida yechiladigan masalalarning har biri bo'yicha test savollarini tuzib chiqish ; to'rtinchi-maqsadlar aniq bo'lib, test savollari tuzilgandan keyin, maqsadlarga yetish usullari tanlanib, ularni ishlatadigan aniq joylarni belgilab olish.

Ta'lim jarayoniga texnologik yondashuv paytida, avval aytib o'tganimizdek, majmui yondashuv tamoyiliga oynai dars qismlari orasidagi zaruriy bog'liqliklarga va fanlararo aloqalarga alohida e'tibor qaratiladi. Bu pedagogik texnologiyaning beshinchi tamoyili hisoblanadi. Shuni aytish joizki, metodika bo'yicha tadqiqotlar olib borish hamda usullar yaratishda

zaminning eng ilg'or usullaridan biri har bir narsa va hodisaga majmui sifatida yondashish zarur. Aks holda faoliyat an'anaviy tus olib, kechagi kunni ifoda etib qoladi. Shu nuqtai nazardan har qanday pedagogik faoliyat davomida pedagogik texnologiya tamoyillari markaziy o'rinda turishi kerak. Shundagina pedagogik faoliyat zamonga mos bo'lib, jamiyat ijtimoiy buyurtmasini sharaf bilan bajarish mumkin.

Pedagogik texnologiya G'arbiy Yevropada ta'limni isloh qilinishi bilan bog'liq ravishda kirib keldi. B.Blui, P.Ya.Galperin, N.A.Menshinskaya, Z.I.Kalmkova, L.I.Zankov texnologiyalari mashhur. O'qitishni tashkil qilishning texnologik yondashuvlari V.P.Bespalko, N.F.Talzina, L.M.Fridman, Yu.N.Kulyutkina, G.S.Suxobskoy, T.V.Kudryavsev, A.M.Matyushkin, M.I.Mahmutov kabi aksariyat psixolog va didaktik olimlarga talluqlidir.

Pedagogik texnologiya tushunchasining shakllanish va rivojlanish tarixida turli qarashlar mavjud bo'lgan; u texnik vositalar haqidagi ta'limot deb hamda o'qitish jarayonini loyihalashtirilgan holda izchil va muntazam tashkil etish deb talqin qilingan. Hozirgi pedagogik texnologiyalarni bir qancha ta'riflari mavjud. Pedagogik texnologiya mohiyatini yoritish uchun pedagog- didaktikachilar tomonidan berilgan ta'riflariga to'xtatilishi maqsadga muofiqdir.

Pedagogik texnologiya- bu ta'lim shakllarini jadallashtirish vazifasini ko'zlagan o'qitish va bilimlarni o'zlashtirishning barcha jarayonlarini texnika va inson omillarida va ularning birgalikdagi harakatlari vositasida yaratish, tadbiq etish va belgilashning izchil metodidir.

Pedagogik texnologiya- bu o'qituvchi, tarbiyachining o'qitish tarbiya vositalari yordamida o'quvchi, talabalarga muayyan sharoitda ta'sir ko'rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir.

Pedagogik texnologiya- pedagogning o'qitish vositalari yordamida tahsil oluvchilarga muayyan sharoitlarda ko'rsatgan tizimli ta'siri natijasida ularda

jamiyat uchun zarur bo'lgan va oldindan belgilangan ijtimoiy sifatlarini intensive tarzda shakllantiruvchi ijtimoiy hodisa.

Pedagogik texnologiya-pedagogik jarayonni boshqarish omili sifatida quyidagi mazmunga ega: PT-ta'lism jarayonini loyihalash asosida tashkillashtirish, uning samarali natijasini kafolatlovchi xususiyatlariga (pedagogik mahorat, pedagogik takt, pedagogik stil, pedagogik aniqlik) pedagog faoliyatining inovatsion xususiyatlariga: ijodkorlik-kreativlik, yuksak professionalism- akmeologiya, tahliliy va tanqidiy yondashuv-refleksiyaga tayangan holda ta'larning yangi shakl va usullarini yaratish va joriy etishni butunligicha aniqlovchi tizimli kategoriyadir.

1.2 Pedagogik texnologiyalar va ularning turlari.

Ta'lism tizimida pedagogik jarayonni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1) Avtoritar texnologiyalar- o'qituvchi asosiy sub'ekt boshqaruvchi, talab qiluvchi, yetkaklovchi sifatida maydonga chiqadi. Talaba shaxsi esa tobe bo'lib, barcha talabalarni bajarish kerak. Bunda talabaning qiziqishlari va ehtiylari ta'limga tashkil etish jarayonida e'tiborga olinmaydi. U bajaruvchi sifatida maydonga chiqadi.

2) Didaktik markazlashgan texnologiyalar. bu texnologiya markazida ta'lism jarayoni turadi va ta'lism jarayoni tarbiyadan ustun qo'yiladi. Aynan didaktik vosita yordamida shaxsni shakllantirish, unda kasbiy ko'nikmalarni hosil qilish maqsad qilib qo'yiladi. Bunda o'qituvchi yetaklovchi ya'ni amaliyotchi sifatida maydonga chiqadi. Ikki tomon ham ya'ni o'qiyuvchi va talaba bir xil pozitsiyani egallaydi. Asosiy maqsad ta'lism olish va tomonlar hamkorlikda ish olib boradilar.

3) Shasxga yo'naltirilgan texnologiyalar. Ta'lism tizimining markazida talaba shaxsi turadi. Talabaning rivojlanishiga sog'lom psixologik muhitni tashkil qilish, nizo va inqirozlardan asrash, tabiiy imkoniyatlarni rivojlantirish, qobilyatini o'stirishga qaratilgan. Bu yo'nalishni to'rt guruhga bo'linadi.

a) Insoniy texnologiyalar. Bu texnologiya o'zining insoniyligi bilan, psixoterapeutik yo'nalishi bilan ajralib turadi. Ushbu texnologiya mazmuni talaba shaxsini har tomonlama qo'llab-quvvatlash va talabani ijodiy qobilyatlarini rivojlantirishdir. Talabaga nisbatan hurmat va mehr bilan qarash va majburiylikdan voz kechishdan iboratdir.

b) Hamkorlik texnologiyalar. Bu texnologiya demokratiya, hamkorlik, tenglik kabi g'oyalar asosida qurilgan. O'qituvchi va talaba orasidagi munosabatlar sub'ekt-sub'ekt sifatida qaraladi. Birgalikda ta'lim jarayonini tashkil etiladi va birgalikda ijod etiladi.

v) Erkin tarbiya texnologiyalari. Talabaga tanlash, mustaqillik erkinligi beriladi. Talaba o'zi tanlagan vosita va mazmunni to'liq qabul qiladi hamda bu faoliyatni xohish bilan bajaradi. Ichki ehtiyoj bilan uyg'unlik hosil bo'ladi.

g) Ezoterik texnologiya. Ezoterik bilimlar, ongdan tashqari qonuniyatlarni o'rGANISH ORQALI haqiqatga yaqinlashish nazrda tutiladi.

Pedagogika nazriyasi va amaliyotida ta'lim-tarbiya jarayonida ko'lab yondashuvlar mavjud. Pedagogik texnologiyalarni xarakteri ana shu yondashuvdan kelib chiqadi. Shunga qaramasdan ko'gina pedagogik texnologiyalar o'z mazmmuni, maqsadi, metodlari va vositalariga ko'ra bir-biriga o'xshash. Pedagogik texnologiyalarni ana shu o'xshash xususiyatlarga qarab ularni bir necha turga ajratish mumkin. Qo'llanishiga, qamrov hajmiga ya'ni mashtabiga ko'ra ularnu uch guruhga bo'linadi:

Umumiy pedagogik texnologiyalar;

Xususiy pedagogik texnologiyalar;

Modulli kichik universal texnologiyalar.

Umumiy pedagogik texnologiyalar- o'z ichiga yirik texnologiyalarni, ya'ni butun ta'lim tizimiga tegishli bo'lgan masalalarni qamrab oladi.

Xususiy pedagogik texnologiyalar esa ma'lum fan doirasida q'llanishi mumkin va qulay bo'lgan texnologiyalarni o'z ichiga oladi. Modulli kichik universal texnologiyalar biror refleksni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib,

turli fanlarni o'rganishda ishlatilishi mumkin bo'lgan texnologiyalardandir. Masalan: didaktik o'yinlar, fikrlashga o'rgatuvchi texnologiyalar. Ular universal xarakterda bo'lib, ko'p vaqt talab etmaydi. Masalan: didaktik o'yinli texnologiyalar.

Modulli o'qitish texnologiyasi- o'qituvchi tomonidan fanning qator mavzularini birlashtiruvchi bo'limlarga, modullarga ajratish bo'lib, odatda fan 10-15ta bo'laklardan iborat bo'ladi va eng oddiy hollarda darslikning boblariga mos tushishi mumkin. har bir ta'lim oluvchi har qaysi modul yuzasidan izhil yo'l-yo'riq oladi. Unda modulning maqsadlari ko'rsatiladi. O'quv ishlarining ma'lum turdag'i koo'rinishlari tavsiya qilinadi. Modul bo'yicha mustaqil ish topshiriqlari keltiriladi. Ta'lim oluvchilar tomonidan o'quv faoliyati turlari erkin tanlanadi va modul bo'yicha alohida sinov o'tkaziladi. Modulli o'qitish ta'lim berishning istiqbolli shakllaridan bo'lib, u ta'lim oluvchilarining bilim imkoniyatlarini va ijodiy qobilyatlarini rivojlantirish tizimiga yaxshi moslashgandir.

O'yin texnologiyalari.

Mehnat va o'qish bilan bir qatorda o'yin ham inson faoliyatining eng asosiy turlaridan biridir. O'yinning strukturasi o'z ichiga quyidagi bosqichlarni oladi.

- maqsadlarni qo'yish
- rejalashtirish
- amalga oshirish
- natijani tahlil qilish.

O'yinli faoliyatning motivatsiyasi eng ixtiyoriyligi, tanlash imkoniyati va musobaqa elementlarining borligi, ehtiyojlarni qondirish, o'zini safarbar qilish bilan ta'minlanadi. O'yin strukturasiga quyidagi jarayonlar kiradi.

- o'quvchilar o'zlariga olgan rollar;
- bu rollarni amalga oshirish vositalar sifatidagi quyidagi o'yinli omillar;
- predmetlarning o'yinli qo'llanilishi, ya'ni haqiqiy narsalarni o'yinli shrtlar bilan almashtirish;

- o'yinchilar orasidagi real munosabatlar;
- syujet(mazmun)-o'yinda ko'rsatilgan haqiqiy ahvol.

Ta'limning faolligi- ta'lim oluvchilarning faolligini tashkillashtirishni ta'minlab beruvchi ta'lim. Ta'limning faol usullari- ta'lim oluvchilarning bilim orttirish faoliyatini kuchaytirish usullari. Asosan u yoki bu muammoni yechish usullarini izlashda taxminiy erkin fikr almashish dialogi asosida quriladi. Ayniqsa keng tarqalgan va o'ziga xos xususiyatiga ega bo'lgan ta'limning faol usullariga quyidagilar kiradi:

- suhbat
- munozara
- ta'limiy o'yinlar
- keys stadi
- loyixalash usuli
- muammoli usul
- aqliy hujum va h.k.

Masofaviy o'qitish texnologiyasi.

Yuqoridagilarga asoslanib, ta'lim jarayonida ayni vaqtda qayta-qayta tilga olinayotgan ayrim terminlar tavsifi va ta'riflarini keltirib o'tamiz. Masofaviy ta'lim- masofaviy o'qitishga asoslangan ta'lim.

Masofaviy o'qitish.

O'zaro ma'lum bir masofada internet texnologiya yoki boshqa interaktiv usullar va barcha o'quv jarayonlari komponentlarini-maqsad, mazmun, metod, tashkiliy shakllar va o'qitish usullari vositalariga asoslangan talaba va o'qituvchi o'rtasidagi munosabat.

Masofaviy o'qitish tizimi- masofaviy o'qitish shartlari asosida tashkil etiladigan o'qitish tizimi. Barcha ta'lim tizimlari singari masofaviy o'qitish tizimi o'zining maqsadi, mazmuni, usullari, vositalari va tashkiliy shakllarga ega. Masofaviy o'qitishning pedagogik texnologiyalari tanlangan o'qitish

konseptsiyasiga asoslangan masofaviy ta'limning o'quv tarbiyaviy jarayonini ta'minlaydi.

- tinlovchi o'qitish metodi va usullar majmuasi.

TB (ta'lim berish) texnologiyasi- masofaviy o'qitishni tashkil etish shunday usulki, u talabalarga o'quv metodik ma'lumotlarni televideniya vositasi yordamida yetkazishga xizmat qiladi va tashqi aloqali ixtiyoriy – interaktiv usullardan biri bilan o'rgatishga asoslanadi. Masofaviy o'qitishning ta'lim tizimida bir-biridaan farqlanuvchi model va shakllari mavjud bo'lib, ular quyidagi qo'llanish shartlari bilan farqlanadi.

Geografik shartlar; mamlakat territoriyasi, markazdan uzoqlikda joylashuvi iqlimi,

mamlakatning axborotlashuvi va kompyuerlashtirishni umumiylar darajasi, kommunikatsiya va transport vositalarining rivojlanish darajasi,

Ta'lim jarayonida axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalarining qo'llanish darajasi.

Ta'limda qo'llaniladigan an'analar.

Masofaviy o'qitish tizimi uchun ilmiy pedagog kadrlar mavjudligi va ularing salohiyati.

Jamoali o'zaro o'qitish texnologiyalari

Bu usul 1918-yilda paydo bo'lgan. Pedagog Ribin pedagogik tajriba o'tkazadi. O'quvchilar bilan individual va juft-juft bo'lib ishlar edilar. She'rlar yodlashadi, qo'shiqlar tinglashardi va oxirida o'qituvchilar oldida muhokama olib borishardi. Bunda talabalarining rivojlanishi hayratli darajada yuqori edi. Rivojlanmagan qishloq o'smirlari bir yildan so'ng mantiqli firlaydigan, isbotlay oladigan, munozara qila oladigan, murakkab mantlarni tahlil qila oladigan hattoki pedagogik qobilyatini namoyon qila oladigan darajada yetadi. Sinov natijasida 3 ta kashfiyat qilindi.

Insert texnologiyasi - insert jadvali mustaqil o'qish vaqtida olgan ma'lumotlarni, eshitgan ma'ruzalarni tizimlashtirishni ta'minlay olingan ma'lumotni tasdiqlash, aniqlash chetga chiqish, kuzatish, avval

o'zlashtirilgan ma'lumotlarni bog'lash qobilyatini shakllantirishga yordam beradi. O'quv faoliyatini tashkillashtirishning jarayonli tuzilmasi: insert jadvalini to'ldirish qoidasi bilan tanishadilar, o'qish jarayonida olingan ma'lumotlarni alohida takomillashtiradilar. Jadval ustunlariga kiritadilar. Matnda belgilangan quyidagi belgilrga muofiq:

“B”- men bilgan ma'lumotlarga mos;

“-” – men bilgan ma'lumotlarga zid;

“+”- men uchun yangi ma'lumot;

“Q”- men uchun tushunarsiz yoki ma'lumotni aniqlash, to'ldirish talab etiladi.

2 va 3 jihatlarning hamda umumiylar tomonlarni solishtirish yoki taqqoslash yoki qarama-qarshi qo'yish uchun qo'llaniladi. Tizimli fikrlash, solishtirish, taqqoslash, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Debatlar usulini qo'llash texnologiyasi - debatlar (tortishuvlar) o'z nuqtai nazarini asoslashda sinfda barcha o'quvchilarning baxslshuvda faol ishtrok etishini ta'minlovchi o'qitish usulidir. Bu usuldan foydalanish tanqidiy tafakkurini rivojlantiradi. O'quvchi o'z nuqtai nazarini rad etishi kerak. Baxs haqiqatini yuzaga keltirgani bois o'qituvchi sinfni ikki guruga bo'lgan holda munozarani atayin avj oldiradi, guruhlarga bir-biriga zid nuqtai nazarlarini aytadi, baxsda topshiriqlar beradi. Bu usul yozma holda olib borilsa, yozma debatlar bo'ladi.

Qo'llanishi:

- baxsda o'quvchilarning faol ishtroki ta'minlanganda;
- muammoni hal qilishda mohirlikka o'rgatishda;
- fikrni aniq va qisqa ifodalashga imkon berilganda;

Afzalligi:

- o'quvchilarni baxslashishga o'rgatish;
- munozara madaniyatini shakllantirish;
- asoslab berish malakasini oshirish.

Birinchi marta mahalliy va xorijiy pedagogikada yil davomida intelektual ravishda o'quv faoliyat amalga oshiriladi. Unda o'zgaruvchan juftlik va mikro guruh bo'lib, ish olib borishadi.

O'quv tarbiyaviy ishning yangi texnologiyasi ishlab chiqildi va sinovdan o'tkaziladi.

Birinchi marta tirli yoshdagi bir-birini o'qitadigan o'quv jamoasi tuzildi.

O'qitishning bunday usuli zamondoshlar tomonidan yaxshi qabul qilindi.

Bobdan xulosalar

Dars jarayonini mazmunini va sifatini tashkil etuvchi vositalar pedagogik texnologiya hisoblanadi.

Pedagogik texnologiya bu-jamiyat ehtiyojidan kelib chiqib, oldindan belgilangan kishi ijtimoiy sifatlarini samarali shakllantiruvchi va aniq maqsadga yo'naltirilgan o'quv jarayonini majmui sifatida ko'rib, uni tashkil qiluvchi qismlari bo'lgan o'qituvchining o'qitish vositalari yordamida o'quvchilarga ma'lun bir sharoitda muayyan ketma-ketlikda ko'rsatgan ta'sirini nazoratda tutuvchi va ta'lim natijasini baholab beruvchi texnologiyalashgan ta'limiy tadbirdir.

Pedagogik texnologiyalardan foydalanish barcha fanlar va shu fanlar qatorida chet til o'rgatish jarayonida qo'llanilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki chet tili o'rganish va o'rgatish jarayoni murakkab jarayon bo'lib hisoblanadi bunday vositalar yordamida o'quvchilar shu tilni tez, oson va sifatli o'rganishga erishadilar. O'quvchilarga fanga ana shu darsga va tilga bo'lgan qiziqishi yanada ortadi, dunyoqarash, o'ylash, fikrlash, qiyoslash va taqqoslash kabi sifatlarini shakllantiradi. Chet til ta'limi jaroyonida quyidagi pedagogik

texnologiyalardan foydalanish mumkin: avtoritar didaktik markazlashgan, shaxsga yo'naltirilgan, insoniy, hamkorlik, erkin tarbiya, ezoterik, modulli o'qitish, o'yin, masofaviy o'qitish, ta'lif berish, jamoali o'zaro o'qitish, insert, debatlar usulini qo'llash texnologiyalari. Chet til o'rgatish jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish ko'zda tutilgan maqsadga erishish uchun asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

2. BOB. Chet til o'rgatish jarayonida interaktiv texnologiyalar.

2.1 O'qitishning interfaol usullari, ularning xuxusiyatlari va qo'llash metodikasi.

Interaktiv (interactive)- dialogli interfaol ta'lif- ta'lif beruvchi va ta'lif oluvchi o'rtaсидаги о'заро harakatni amalga oshiruvchi dialogli ta'lif. **Interfaollik**- ta'lif doirasida prinsipial yangi hodisa shu tufayli ta'lif oluvchi.

a) ta'lif jarayoninig hamma sub'ektlari bian o'zarob harakatda bo'lishi, faqatgina o'qituvchi bilan shaxsiy munosabat yo'lidagina emas, balki boshqa talablar, ma'muriyat bilan hal qila olishi mumkin.

b) multimedia ob'ektlarini tahlil qilish jarayonida ularning mazmunini, shaklini, o'lcham va ranglarini, dinamik ravishda boshqarishni, turli tarafdan ularni kuztishni, boshqa shunga o'xshash manipulyasiyalarni qayta ta'minlashni, ko'proq aniq ko'rsatuvga erishish uchun xohlagan joyidan to'xtatib va davom ettira olish mumkin bo'ladi.

Interfaollik faqatgina axborotlarni qabul qilish uchungina emas, balki o'r ganilayotgan ob'ektlar yoki jarayonlarda va virtual modellarning o'zaro harakatlarida multimedia modellari xususiyatlarini faol tadqiqot qilish uchun ham imkoniyat yaratib beradi. Interfaollik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, ta'lif jarayoni ham shunchalik samarali bo'ladi. Hozirgi davr o'qitish shakllari talablarini erkin, ijodiy fikrlashga, ishlashga yo'naltirganligi bilan ahamiyatlidir. Har bir dars, mavzu, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor, ya'ni o'quv jarayonidagi

pedagogik texnologiya bu yakka tartibdagi jarayon bo'lib, u o'quvchi talabaning ehtiyojidan kelib chiqqan holda, bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir.

O'qituvchi tomonidan har bir darsni yaxlit holda ko'ra bilish va uni tassavur etish uchun bo'lajak dars jarayonini loyihalashtirib olish kerak. Bunda o'qituvchiga u tomonidan bo'lajak darsni texnologik xaritasini tuzib oilshi katta ahamiyatga egadir, chunki darsning texnologik xaritasi har bir mavzu, har bir dars uchun o'qitiladigan predmet, fanning xususiyatdan, o'quvchilarning imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi. Bunday texnologik xaritani tuzish oson emas, chunki buning uchun o'qituvchi pedagogika, psixologiya, xususiy pedagogika, pedagogik va axborot texnologiyalaridan xabardor bo'lishi, shuningdek, juda ko'p metodlarni bilishi zarur.

Har bir darsni rang-barang, qiziqarli bo'lishi avvaldan puxta o'ylab tuzilgan darsning loyihalashtirilgan texnologik xaritasiga bog'liq. Darsning texnologik xaritasini qay ko'rinishida yoki qay shaklda tuzish, bu o'qituvchining tajribasi, qo'ygan maqsadi va ixtiyoriga bog'liq. Texnologik xarita qanday tuzilgan bo'lmasin, unda dars jarayoni yaxlit xolda aks etgan bo'lishi h aniq belgilangan maqsad, vazifa va kafolatlangan maqsad, natija dars jarayonini tashkil etishning texnologiyasi to'liq o'z ifodasini topgan bo'lishi kerak. Texnologik xaritani tuzilishi o'qituvchi darsini kengaytirilgan konspektini yozishdan xalos etadi, chunki bunday xaritada dars jarayoning barcha qirralari o'z aksini topadi.

Aytib o'tilganidek, Texnologiya tushunchasi texnikaviy taraqqiyot bilan bog'liq holda fan 1972-yilda kirib keldi va yunoncha ikki so'zdan - texnos - soha, hunar va logos - ta'limot so'zlaridan tashkil topib fani nomi ma'nosini anglatadi. Ta'lim texnologiyasi ta'lim modellarini optimallashtirish maqsadida, inson va texnika resurslari va ularning o'zaro

ta'sirini xisobga olgan holda butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yaratish, qo'llash va aniqlash tizimidir.

O'qituvchining innovation faoliyati. Pedagogning innovation faoliyati o'z ichiga yangilikni tahlil qilish va unga baho berish, kelgusidagi harakatlarning maqsadi va konseosiyalarini shakllantirish. Ushbu rejani amalga oshirish va tahlil qilish, samaradorlikka baho berishni qamrab oladi. Pedagogik innovatsiyada “yangi” tushunchasi markziy hisoblanib, pedagogika fanida - xususiy, shartli, mahalliy va sub'ektiv yangiliklarga qiziqish uyg'otadi. Ilmiy yo'naliishlarda yangilik va innovatsion tushunchalari farqlanadi.

Yangilik - bu vosita, yangi metod, metodika, texnologiya. Innovatsion - bu ta'lim ma'lum bosqichlari bo'yicha rivojlanish jarayoni.

Chet tillar o'qitish ta'limida yangi texnologiyalarni qo'llash davr taqozosi sifatida talab qiladi va o'zgarib turadi.

Metod va texnologiya tushunchalari bir- birini to'ldirib, izohlab keladi. Metoditst olim, Professor J. JALOLOV esa “metod” atamasining uch ma'nosiga e'tibor qaratadi (Jalolov, 2012).

- 1) Metodika tarixida butun bir yo'naliish tarjima metodi, to'g'ri metod, aralash metod.
- 2) Yuqorida yo'naliish tarkibiga kiruvchi o'qitish sistemasi. Masalan: Fransua Guen metodi, Maykl Uest metodi.
- 3) Muallim va o'quvchining o'zaro bog'langan faoliyati usuli - tanishish, mashq qilish va qo'llash metodlari.

Metodika so'zi “biror ishni maqsadga muofiq bajarish usullari yig'indisi” deya ta'riflanadi. Chet tili o'qitish metodikasi doirasiga texnologiyadan tashqari o'rganilayotgan materialni tanlash, tasniflash metodik tashkil etish kabi masalalar ham kiradi. Rivojlangan demokratik davlatlar darajasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash vatanimiz pedagoglari oldiga muhim vazifalarni qo'yadi. Mana shunday vazifalardan biri yangi pedagogik va zamonaviy texnologiyalarni chuqur o'rganib

chiqish va ularni o'quv jarayoniga joriy etishdir. G'arb ta'lim muassalarida hozirda "brain storming" aqliy hujum, modul tizimi bo'yicha o'qitish klaster axborot yoyish va yig'ish usullaridan keng foydalanimoqda. Bu usulni mamalakatimiz ta'lim muassalarida ham o'qituvchilar qo'llamoqdalar. Tarixchilarning ta'kidlashicha tarixga nazar solsak, hozirda "aqliy hujum" deb atalgan o'qitish usulidan bir necha asrlar ilgari ilm beshigini tebratgan olimu - allomalar, dunyoni zabit etgan sarkardalar ham foydalanganlar. Bobokalonlarimiz bu metodni boshqacha nomlangan, ya'ni: "kengash", "mashvarat", "maslaxat" deb atashgan.

Zamonaviy kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalarning rivojlanishi yangi ta'lim yuri- "masofaviy ta'lim" ning paydo bo'lismiga olib keladi. Zamonaviy texnologiya talabiga binoan talabalarda o'qisgha qiziqish uyg'otish, ayniqsa, o'zining yutuqlaridan huzur topib, mamnun bo'lismiga odatlantirish muofaqqiyat garovidir. Yangi kompyuter va axborot texnologiyalarni ta'lim sohasida qo'llash ish joyidan soniga emas, balki ta'lim berish sifatiga, uni tashkil qilishga, tarkibiga, o'qituvchilardan zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida, yangicha usulda ishlashni talab qilyapti. "kadrlar tayyorlash milliy dasturida" ta'limni zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari asosida tashkil etish, bunda ilg'or chet el tajribasidan foydalanishiga alohida e'tibor qaratilgan.

Zamonaviy metodik adabiyotlarda "innovatsion texnologiya", "innovatsion pedagogik texnologiya", "axborot texnologiyasi" kabi ilg'or pedagogik texnologiyalar ham ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish uchun xizmat qiladgan muhim omillardandir. Chet til ta'limi jarayonida interfaol usullar va ulardan amalda foydalanish, chet til ta'limining dolzarb masalalardan sanaladi. Ayniqsa, bunday usullarga asoslangan assosiogramma mashqlaridan foydalanish tajribada yaxshi samara beradi. Jumladan: brayn storming, klaster, mandy mep, vortshpinne, vortigel, vortbundel kabi metodik usul va mashqlar nutq faoliyatining barcha turlariga oid

ko'nikma va malakalarni shakllantirish hamda rivojlantirish borasida yaxshi samara beradi.

Ilg'or pedagogik texnologiya ta'limshunoslik tamoyillariga asoslanadi va birinchi navbatda, talaba shaxsiga qaratiladi. Ta'limning barcha jabxalaridek chet til o'qitishda ham pedagogik texnologiyalardan foydalanish davr taqozosidir. Ta'limning pedagogik texnologiyasi ta'lim oluvchilarga nisbatan yaratilgan bo'lib, o'quv materiallarini o'zlashtirishga qaratiladi. YUNESKO tarifida ta'kidlanganidek, pedagogik texnologiya ta'lim shakllarini va mazmunini samaradorligini oshirishga qaratilgan inson omillari va texnik vositalardan oqilona foydalanilgan o'qitish va o'zlashtirishning tizimli usulidir. Bundagi mazmundan kelib chiqib pedagogik texnologiyada asosan uchta omilni ajratib ko'rsatish mumkin.

- 1) O'quv muassasidagi o'qituvchi omili.
- 2) O'quv muassasidagi talaba omili.
- 3) O'quv muassasidagi ta'lim vositalari omili.

Pedagogik texnologiya chet til o'qituvchisi oldiga bir qator talablarni qo'yadi. O'qituvchi o'qiyotgan fanni yaxshi bilishi kerak, o'z bilimlarini tinmay takomillashtirib borish kerak, rivojlangan horijiy davlatlarda hamkasblarining dars o'tish metodlaridan internet orqali, ommaviy axborot vositalari, o'quv adabiyoti orqali xabardor bo'lib turishi kerak. Xalqaro me'yorlar va andozalar asosida davlat standartlari darajasida ishlay olishi kerak. Ilg'or pedagogik texnologiya fani ta'lim olayotgan o'quvchi-talabalarni alohida omil sifatida talqin qilsa bo'ladi. Har qanday ta'limiy texnologiyalar asosini didaktik jarayon tashkil etadi. Didaktik jarayonning bir bosqichi o'quv faoliyati xisoblanadi. O'quv faoliyati talabaga tegishli faoliyatdir. Pedagogik texnologiyada chet tilini o'qitishda o'qituvchi har bir talaba shaxsida ma'lum bir qobiliyat, iste'dod borligini sezishi va talabaning o'sha iqtidorini rivojlantirish zarur, ozgina bo'lsa ham muavaffaqiyatga erishgan talabani rag'batlantirish kerak. Chet tillarini talabalarga o'rgatishda o'qituvchi quyidagi metodlardan qo'llashi kerak:

- Aqliy hujum: baxs metodi
- $6 \times 6 \times 6$ metodi: har bir talaba ham tinglovchi, ham so'zlovchi bo'ladi.
- Klaster metodi: bunda talabalar ixtiyoriy ma'ruzalarni yozma bayon etadi.
- Qarorlar shajarası: bunda ko'p yechimlar orasidan eng maqbولي va to'g'risini toppish, rol va ishbop o'yinlar.
- Mehmon - mezbon o'yini ;
- O'qituvchi - o'quvchi o'yini;
- Kutubxonachi va talaba o'yini;
- Tanishuv o'yini.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va “Ta’lim to’g’risidagi qonun”da chet tilni o’rgatishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilish va o’zlashtirish zarurligi ta’kidlanadi. Dars samaradorligini asosan o’quv jarayonida qo’llaniladigan pedagogik texnologiyalarga bog’liq. Chet til darsi jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish talabaning tilga bo’lgan qiziqishini yanada oshiradi va ularning tildan egallaydigan bilim, ko’nikma va malakalarini yuqori bo’lishini ham ta’minlaydi. Zamonaviy pedagogik texnologiya shakliga ko’ra erkin ta’lim, noananaviy mashg’ulot va faollashtirish, usulga ko’ra izlanish, muammoli vaziyatlarni hal etish, mustaqil ijodiy erkin fikrlashdir. Chet tillarni o’qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning dars jarayoniga tadbiqi quyidagilardan iborat: chet tillarini o’qitishda kompyuter texnologiyasi internet yordamida bevosita masofaviy ta’limdan foydalanish, talabalarning guruhli va frontal ishlarini hamda kompyuterli nazoratni tashkilashtirish, texnik vositalardan foydalanish (audiomagintafon, kodoskop, video) ko’rgazmali qurollardan foydalanish (ma'ruzalar bo'yicha rasmlar, sxemalar)

- Aqliy hujum, klaster, zig-zag kabi yangi pedagogik texnologiyalar asosida mashg’ulot o’tkazar ekanmiz, bunday mashg’ulotlar talabalarni faol ishslashga qo’llash bilan birga wng asosiysi ularni erkin fikrlashga yo’llaydi. Masalan: klaster metodi bu tarmoqlarga bo’lish metodi bo’lib, bunda o’qituvchilar tomonidan tanlangan mavzu qamrab oladigan barcha

yo'nalishlar talabalar ishtrokida yoritiladi. Unda berilgan yo'nalishlar umumlashtirilib asosiy hikoya tuziladi. Natijada o'quvchilar ushbu mavzu haqida ma'lumotlarga ega bo'lib, ko'nikma hosil qiladilar.

Ushbu metod asosida "DIE FAMILIE" mavzusini ko'rib chiqamiz. Bunda o'quvchilar otlarni rodiga ajratib o'rghanadilar. Chunki memis tilida artikellar katta ahamiyatga ega.

DIE FAMILIE

DER OPA	DIE OMA
DER VATER	DIE MUTTER
DER BRUDER	DIE SCHWESTER
DER ONKEL	DIE TANTE
DER NEFFE	DIE KUSINE

Shu tarzda oddiydan murakkabga qarab o'quvchilarga chet tilini o'rgatish mumkin.

Chet tilini o'rganishda mutaxassislikka oid matnlarni o'rganish dastlabki vazifadir. Demak, zamonaviy pedagogik texnologiya chet tillarni o'qitishda dars o'tish usulini kengaytirib, o'tilayotgan darsni sifatini oshirib boradi.

O'quvchilarning darsdagi faolligini ishirishda qator interfaol usullardan foydalanish mumkin. Interfaol metod iborasi ingliz tilidagi "interactive" so'zidan olingan bo'lib, u talabalarda ichki faollikni oshirishni nazarda tutadi. Ushbu metodning qator turlari bo'lib, hozirda keng qo'llanilayotgan aqliy hujum, ishbilarmonlik o'yinlari, pinbord, klaster, sinkveyn, kubik texnologiya, rolli o'yinlar kabi interfaol metodning ayrim ko'rinishlari ta'lim jarayonida talabalarning faolligini oshirishga qaratilgan. Interfaol usullar qo'llanganda o'quvchilarning faolligi oshadi, o'quv materialiga, o'rganilayotgan horijiy tilga qiziqishi ortadi. Tez fikrlash va tez qaror qabul qilish ko'nikmalari rivojlanadi. Interfaol o'qitishda guruuh-guruuh bo'lib o'qitish, 3-5 kishidan iborat kichik guruuhlar tuzish samarali hisoblanadi. interfaol metodlar o'quvchilarni o'z shaxsiy qarshiga ega

bo'lishiga va turli muammoli vaziyatlarda eng maqbul yechimni topishga o'rgatadi.

Hozirgi paytda ta'lif samaradorligini oshirishdagi muhim omillardan birin texnik vositalardan foydalanishidir. O'qituvchining turli texnik vositalardan foydalanish imkoniyati juda katta. Bu oddiy proeksiyon qurilmalardan tortib, kompyuter va video filmlardan unumli foydalanishni ham o'z ichiga oladi. Bu esa, o'z navbatida, til o'rganishga nisbatan qiziqishini va o'tilayotgan darslarning sifatini oshiradi, o'quvchilarning dars jarayonidagi faolligini ta'minlaydi. O'qishning sifat va samaradorligi ijobiy bo'ladi. Uning quyidagi imkoniyatlari mavjud:

- 1) Uy vazifasini me'yori bilan berish va o'quvchi qiziqib, sevib bajaradigan mavzularni tanlash.
- 2) Vazifa sifatida berilgan materiallarni sinf bilan muhokama qilish, yutuq va kamchiliklarini o'z mushohadasiga muvofiq bayon qilishga o'rgatish.
- 3) Bilimlarni amaliy ishlar bilan bog'lab borish, ijodiy faoliyatga o'rgatish.
- 4) O'quvchida burch va ma'sulyatni shakllantirish.
- 5) Milliy g'urur va do'slik hissiyotini tarkib toptirish.
- 6) Kompyuter savodxonligini shakllantirish.

Yangi pedagogik texnologiya dars jarayonida qancha ko'p qo'llansa, darsning samaradorligi shuncha yuqori bo'ladi. Zamonaviy til o'qitish metodikasi rang-barang samarali usullarga boy bo'lib ular o'quvchilarning mustaqil fikrlashi hamda amaliy mashg'ulotlarda o'qituvchi bilan birga faol ishtrok etishga to'la imkon beradi. Ilg'or pedagogik texnologiya ta'lif jarayonida zamonaviy axborotni qo'llash bilan birga talabani mustaqil fikrlashga o'rgatishni talab etadi. Jahonning ko'plab ilg'or mamlakatlarida vaqt sinovidan o'tgan yangi pedagogik texnologiyalar dars maqsadini amalga oshirishdagi samarasini yuqori ekanligi bilan ahamiyatlidir, chunki bunda e'tibor o'quvchining faolligini oshirishga qaratiladi. Bunday interfaol usullardan foydalanib darslar tashkil qilinsa, har bir o'quvchi o'zining

ichki imkoniyati, qobilyatini namoyon qiladi, bu esa xorijiy tillarni intensiv o'rganishda o'z amaliy samarasini orttiradi.

Xorijiy tillarni o'qitishda matn ustida ishlashning sifat va samaradorligini oshirishda interfaol usullardan imkon darajada foydalanish o'quvchining til o'zlashtirilishida yaqindan yordam beradi. O'qituvchi interfaol metoddan foydalanganda avvalo oddiydan murakkabga tamoyiliga amal qilgan holda foydalanmog'lik lozim. Ushbu tamoyil asosan dars jarayonida qo'llanilayotgan metodlarga quyidagilarni kiritishimiz mumkin bo'ladi. Murakkab metodlar qatoriga BBB, matnni tahlil qilish, esse, zigzag, intervju, reyzume kabilarni kiritishimiz mumkin.

“Kadrlar tayyorlsh milliy dasturi”da ta’kidlaganidek “Zamonaviy iqtisodiyot, fan, texnika va texnalogiyalarini va texnalogiyalarini rivojlantirish asosida kadrlar taylorlashning takomillashgan tizimini yaratish mamlakatni taraqqiy ettirishning eng muhum sharti hisoblanadi”.

Ta’lim to’g’risidagi qonun va kadrlar taylorlash milliy dasturida chet ta’lim ta’limida yangi milliy dasturida chet til ta’limida yangi pedagogik texnologiyalar va interfaol usullardan samarali foydalanish zarurligi ko’rsatib o’tilgan. Pedagogik texnologiya oldiga ta’lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo'yadi, butun ta’lim jarayonini yaratish, qo’llash va aniqlashga xizmat qiladi. Uning maqsadi ta’lim jarayonining samaradorligini va talabalar tomonidan ma’lum natijalarga erishishni ta’minlashdan iborat.

Chet til ta’limida yangi pedagogik va information texnologiyalardan foydalanish jarayonida darsni har tomonlama puxta holda tashkil etish, talabalar tomonidan bilim va ko’nikmalarni o'zlashtirishning samarali usullarini izlab topish, darsning sifati va samaradorligini ta’minlovchi vositalarni qo’llash talab etiladi. Bularning hammasi talabalarning chet tilini o'rganish qobilyatlarini rivojlantirish, ularning til o'rganishga qiziqishini kuchaytirish, talabalarning xotirasini mustahkamlash, talabalarda o'z bilimiga ishonch kabi ko’nikmalarning shakllanishi va rivojlanib

borishiga xizmat qiladi. Ta’lim samaradorligini oshirish uchun chet tili o’qituvchisi o’z faoliyati davomida yangi pedagogik texnologiyalarning turli usullaridan foydalanib, ularni izchillik bilan yangilab borishi va yordamchi o’quv vositalari: ko’rgazmali qurollar, turli rasmdan tarqatmali materiallar, o’qitishning texnik vositalarini har doim takomillashtirib borishi lozim. Ana shunday tashkil etilgan dars jarayonida talabalarning chet tiliga bo’lgan qiziqishlari ortib, ularning mustail ijodiy ishlash malaka va ko’nikmalarini takomillashtirib boradi. Natijada talabalarda nutqiy muloqotga kirishish rivojlanib boradi, ularda nutq madaniyatiga erishish imkoniyati paydo bo’ladi.

Mazkur qonunda umumiy o’rta ta’lim, o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi, oliy ta’limning uzlucksizligi va uzviyligi masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Ushbu sohada amlaga oshishi lozim bo’lgan ishlar salmig’I juda katta. Bu borada oliy ta’lim dargohlari mutaxassislarning amalga oshiradigan vazifalari nihoyatda muhimdir. Shu jihatdan qaralganda, chet tillar mutaxassislari tayyorlaydigan kafedralarning faoliyati salmog’ligi bo’lishi lozim. Chet til ta’limiga yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish o’quv tarbiya jarayonini aniq rejalashtirish, darsning sifati va samaradorligini oshirish imkoniyatlarini oshiradi. Bunda eng muhim ta’lim jarayonlarining texnologik imkoniyatlarini ishlab chiqishdir. Ta’lim texnologiyasiga tizim sifatida qaralsa, uning tuzulmasini tashkiliy funksional elementlar bo’yicha tasavvur etish mumkin. Ta’lim texnologiyasining tashkiliy elementlari tahsil beruvchi, tahsil oluvchi, maqsad, natija, axborotlar mazmuni, metodlar, vositalar va o’qitishning tashkiliy shakllari, nazorat qilish, tashxislash, axborotlar olish usul va vositalardan iborat. Pedagogik jarayon o’quv maqsadini belgilash bilan boshlanadi. Maqsad shunday aniq bo’lishi lozimki, uning vositasida ta’lim – tarbiya jarayonini qanday darajada amalga oshirganligini aniqlash, berilgan vaqtida ko’zlangan maqsadga erishishni ta’minlaydigan didaktik jarayonni ko’rish imkoniyatini beradi. Ushbu jarayonda yangi pedagogik

va informatsion texnologiyalardan unumli foydalanish talab etiladi. Ana shundagina ta'limning sifati va samaradorligi oshadi hamda talabalarning chet tillariga bo'lган qiziqishi yanada ortib boradi.

2.2 Zamonaviy axborot - kommunikatsiya texnologiyalar muhitida o'qituvchi va o'quvchilarining o'zaro hamkorlik shakllari.

Ta'lim-tarbiya jarayonida ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini samarali joriy etish hamda ularning natijaviylici quyidagi me'zonlar asosida aniqlanadi:

Natijaviylici, o'quv tarbiya jarayoni samaradorligini muntazamligi va yuqori daraja ekanligi;

Dolzarbligi, ijtimoiy ahamiyati, o'quv-tarbiya vazifalarining samarali bajarilishi;

Barqarorligi, bir necha marta yuqori natijaga erishilganligi har xil sharoitda sinab ko'rilmaganligi;;

Optimalligi, minimal vaqt, sharoit va vositalar orqali yuqori natijalarga erishish;

Ommaviy ravishda amaliyotda tajribani ijodiy qo'llash imkoniyati mavjudligi.

Videokonferensiya – bu shunday kompyuter texnologiyasiki, u orqali foydalanuvchi shaxslar bir-birlarini real vaqtda ko'radi, eshitadi va ma'lumotlar bilan almashadi.

Videokonferensiya tarixi: 1964 yil AT\T kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan. Videophone: real vaqtda ovoz va tasvirni almashish qurilmasidan boshlanadi.

Videokonferensiya o'tkazish uchun asosan ikkita shartni bajarish lozim:

- A) videokonferensiyani amalga oshirish uchun zarur bo'lган kompyuter qurilmalari;
- b) videokonferensiyani o'tkazish talabiga javob beruvchi aloqa kanallaridan foydalangan holda, muloqotga chiquvchilar bilan bog'lanishdir.

Shunday zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari o'qituvchi va o'quvchilarni o'zaro hamkorligini oshirishga va darsning samaradorligini oshirishda ahamiyatlidir.

Hamkorlikda o'qitish bu kichik guruhlardagi instruktaj va interfaol jarayonlarni aniqlovchi ommalashgan iboradir. O'quvchilar hamkorlikda turli xildagi topshiriqlar ustida, kichik guruhlarda ishlashadi va o'zlariga hamda o'z guruhlardagi o'rtoqlariga birgalikda yordam berishadi. Umuman, hamkorlikda o'qitish metodlari quyidagi besh xususiyatga ega:

- 1) O'quvchilar birgalikda, umumiyligi topshiriq yoki o'qitilayotgan faoliyat ustida ishlashadi, bu guruhiy ish orqali yaxshi o'zlashtiriladi.
- 2) 2-5 nafar tarkibdan iborat, o'quvchilar kichik guruhlarda birgalikda ishlashadi.
- 3) O'quvchilar umumiyligi vazifalarni yechimini topishga erishish yoki o'rghanish uchun, kooperativ va ijtimoiy qabul qilingan hulq-atvorni ishlatishadi.
- 4) O'quvchilar ijobiy va mustaqil bo'lishadi. Umumiyligi vazifalarni yechimini topishga erishish yoki o'rghanishda o'quvchilarning bir-birlariga ko'mak berishi talab etilishi hisobga olinib, reja tuziladi.
- 5) O'quvchilarda o'z ishlari natijasiga yoki boshqacha aytganda, o'qishga ta'lim olishga shaxsan ma'sulyatli va javobgarlik paydo bo'ladi.

Hamkorlikda o'qitish, o'quvchining o'rghanish jarayonini boyitadi:

O'quvchilardagi mavjud kognitiv axborotlar to'plamini yaratadi.

O'quvchilarda materialni o'rghanishlarida ishtiyoq uyg'otadi.

O'quvchilarning o'z shaxsiy bilimlarini shakllantirishda ko'maklashadi.

Qayta bog'lanish orqali xatoliklar tuzatiladi.

Sinfdan tashqari erishiladigan muvaffaqiyat zaruriy ijtimoiy va guruhiy bilimlar erishiladi.

Turli xil madaniy va madaniy guruhlar o'rtaqidagi ijobiy o'zaro munosabat o'rnatiladi.

Hamkorlikda o'qitishning texnikasi va tizimi.

Uch pog'onali intervyu
Davra suxbati
Ro'yxat tizimi
Muammolar yechimining tuzilishi
Bir daqiqalik ishlar
Juftlik izohlari
Muammoni jo'natish
Baholash chizig'i o'tqazish
Kam uchraydigan birlik
Jamoa kutuvi
Ikki qismli kundalik

Zamonaviy axborot va kompyuter texnologiyalaridan foydalanib o'qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonida tinglovchilarining kasbiy mahoratini talomillashtirishda asosiy e'tiborni quyidagi mavzularni o'zlashtirishga qaratish muhim hisoblanadi.

Jamiyatdagi axborotlashtirish jarayonining ta'lim tizimidagi o'rni.
Milliy va xorijiriyligi axborot tarmog'i va portallardan axborotlar izlash va topish.

Axborotlarni qayta ishslashning zamonaviy dasturlari va usullari.
Ta'lim tizimini boshqarishda axborot texnologiyalardan foydalanish.
Axborot texnologiyalari asosida o'quv-usuliy va pedagogik tadqiqot faoliyatlarini shakllantirish.

Pedagog hodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonida o'qituvchilarining kasbiy mahorati va axborot madaniyatini takomillashtirishning asosiy vositalari sifatida o'quv va amaliy dasturlar, multimedia texnologiyalari, elektron o'quv adabiyotlari, masofadan o'qitish tizimi, internet tarmog'i hamda amaliy dasturlar paketlarini keng qo'llash tizim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Axborot tizimi hoziri paytda hech kimni, hech qaysi millatni, hech qaysi davlatni chetlab o'tmasligi barqaror. Chunki axborot texnologiyalari,

electron tarmoqlar, mobil aloqa vositalari inson hayotining ajralmas qismiga aylanib qolmoqda. Bunday davrda ta'lim-tarbiya jarayonini mazmunan takomillashtirish, o'quvchilarda tayanch kompetentlarini, ayniqsa, axborot bilan ishslash kompetentsiyasini jadal rivojlantirish ehtiyoji tug'ilishi barqarordir. Shunday qilib, bugun o'quvchilarga medakomponentlikni shakllantirishni ta'lim-tarbiya jarayonida umumta'lim fanlariga singdirgan holda amalga oshirishi lozim.

Hozirgi an'anaviy ta'lim XVII-asrda YA. A. KOMENSKIYning didaktik tamoyillari asosida shakllanib, hozirda dunyodagi maktablarda eng ko'p qo'llanayotgan sinf-dars tizimidan iborat. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosan shu tizimni turli yo'nalishlarda takomillashtirish maqsadlarida yaratilib, hozirda turli yo'nalishlarda rivojlanmoqda.

Pedagogik texnologiya jarayonini takomillashtirish, uni bola shxsiga yo'naltirishga asoslangan pedagogik texnologiyalar: hamkorlik texnologiyasi, ta'limning insonparvarlikka asoslangan texnologiyasi va boshqalar hisoblanadi.

O'quv jarayonini samarali boshqarish va tashkil qilishga asoslangan pedagogik texnologiyalar: tabaqilashtirilgan, individuallashtirilgan, dasturlashtirilgan ta'lim texnologiyalari, ta'limning jamoa usuli, guruhli, kompyuterli ta'lim texnologiyalari kabilar kiradi.

Tabiatga muvofiqlashtirilgan pedagogik texnologiyalar: bolaning tabiiy imkoniyatlari, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishning tabiiy imkoniyatlari va boshqa tabiatga muvofiq imkoniyatlardan to'liq foydalanishni amalga oshirishga asoslangan pedagogik texnologiyalar kiradi. Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari: bola shaxsining ijobiy sifatlarini, ayrim sohalardagi bilimlarini ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyalari kiradi. Bulardan tashqari xususiy pedagogik texnologiyalari, **alteriativ** hamda mualliflik pedagogik texnologiyalari yo'nalishlari ham mavjud.

Mazkur texnologiya har bir bolaning namunali tahlil olishi, guruhgaga muvofaqiyat olib kelishini anglagan holda ularni muntazam va sidqidildan aqliy mehnat qilishga, o'qib topshiriqlarni sifatli bajarishga, o'rtoqlariga hamkor bo'lib, o'zaro yordam uyushtirilishiga zamin yaratadi. O'qituvchi o'quv dasturidan o'rin olgan mavzuni hamkorlikda o'qitish texnologiyasi usullaridan foydalanib o'tishini belgilangandan so'ng, bolalar guruhi uchun mavzu materiallarini mustaqil ishlab o'rganishga imkon beradigan topshiriqlar tuzadi. Pedagog mashlug'otni boshlashdan avval bolalarni ikki guruhgaga ajratib, mavzu bo'yicha tuzilga o'quv mashg'ulotlari asosida ularning mustaqil va ijodiy ishlarni tashkil etadi. Har topshiriq bo'yicha savol-javob o'tkazilib, bolalarning javoblari tegishli ballar bilan baxulanadi. Mashg'ulot so'ngida g'olib guruh aniqlanib rag'batlanтирлади. Bu esa o'z navbatida darsning samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. demak, xulosa qilib aytadigan bo'lsak zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari o'qituvchi va o'quvchilarni bilim berish va bilim olish samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Yuqorida aytib o'tilgan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyasida o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorligiga **hamkorlik texnologiyasini** misol qilib kiritishimiz mumkin. Hamkorlikda o'rganish talabalarning bilimini o'zlashtirish, singdirish, mustahkamlash bo'yicha reproduktiv faoliyatini ta'minlovchi mahorat va malakani ketma-ketlik bo'yicha talabaning bevosita boshchiligidagi ishga solishni tashkil etishga asoslangan o'qitish va bilim olishdir. U talabalarning mustaqil guruhlarda ishlashi evaziga ta'lim olishni ko'zda tutadigan metodlardan iborat. Bularga kitob bilan ishslash, o'quv suxbati, davra suxbati, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishslash, baxs-munozara kabi metodlarni kirtish mumkin.

Hamkorlik deganda, o'quv jarayoni qatnashuvchilarining yagona maqsadga erishish yo'lidagi hamkorlikdagi faoliyati tushuniladi. Buni quyidagi 3ta komponentga bo'lish zarur:

- 1) Maqsadlarni borligini aniq anglab yetish.

2) Hamkorlik qilayotgan tomonlarning faoliyatini aniq belgilab, chegaralab berish.

3) Qo'yilgan maqsadga erishishni ta'minlovchi vazifalarni yechishga o'zaro yordam berish.

Biz zamonaviy axborot-kommunikatsiya ta'lim jarayonida yuqoridagi hamkorlik texnologiyasini talablariga mos ravishda faoliyat olib borsak, o'qiyuvchi va o'quvchilarning dars jarayonida ko'zlangan maqsadga erishgan bo'lamic.

1- Bobdan xulosalar.

Chet til o'rgatish jarayonida bir qator pedagogik texnologiyalardan foydalanish mumkin. Shulardan biri bu- interaktiv texnologiyadir. Interaktiv (interactive) dialogli interfaol ta'lim- ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi o'zaro harakatni amalga oshiruvchi dialogli ta'lim hisoblanadi. Chet til o'rgatish jarayonida interaktiv texnologiyalardan foydalanib, dars jarayonini tashkil etilsa o'quvchilarga tilni oddiydan murakkabga qarab o'rgatilib borilishiga erishiladi. Bunday interfaol usullar darsni faolligini oshiradi. Ta'lim- tarbiya jarayonida ilg'or pedagogik va axborot- kommunikatsiya texnologiyalarni samarali joriy etish samarali ta'lim jarayonini tashkil etadi. Dars jarayonida interaktiv texnologiyalardan foydalanilsa o'quvchilarda hamkorlik bilan ishslash sifatlarini ham shakllanadi. Agar zamonaviy axborot-kommunikatsiya ta'lim jarayonida yuqoridagi hamkorlik texnologiyasini talabga mos ravishda amalda qo'llashga erishilsa, o'qituvchi va o'quvchilarning dars jarayonidagi ko'zlangan maqsadlariga erishlari yengillashadi. Interfaollik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, ta'lim jarayoni ham shunchalik samarali bo'ladi. Hozirgi davr o'qitish shakllari talabalarni erkin ijodiy fikrlashga, ishslashga yo'naltirganligi bilan ahamiyatlidir. Har bir dars, mavzu, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor, ya'ni o'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya bu yakka tartibdagi jarayon bo'lib, u o'quvchi talabaning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Faol o'qitish usullari va ularni o'qitish jarayonida qo'llash. Faol o'qitish metodlarini tanlash, ta'lif texnologiyalari elementlarini tanlash va amalga oshirish talabalarning o'quv bilish faoliyatlarini e'tiborga olish lozim. Amaliyotda oddiy qoida shu haqda guvohlik beradiki, nazariy darsning dastlabki 20-daqiqasiga talabalarga yangi bilimlarni berib amalga oshiriladi, keyin esa baxs-munozara, kichik guruhlarda shu kabi noan'anaviy metodlarni amalga oshirish, berilgan bilimlarni mustahkamlashi lozim. Har qanday holatda ham nazriy dars jarayonida, masalan, faqat mavzu o'qiladigan vaqt 20 daqiqadan oshmasligi shart.

O'qitishning interfaol usullari, ularning xususiyatlari va qo'llash metodikasi.

Tarmoqlar metod i- - talabani mantiqiy kirlash, umumiy fikr doirasini kengaytirish, mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanishni o'rgatishga qaratilgan.

3x4 meetodi - talabalarni erkin fikrlash, keng darajada turli g'oyalarni bera olishi, ta'lif jarayonida yakka, kichik guruh holda tahlil etib, xulosa chiqarish, ta'rif bera olishga qartilgan.

Blitz o'yon metodi - harakatlar ketma- ketligini to'g'ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o'rganayotgan predmeti asosida ko'p, hilma-xil fikrlardan, ma'lumotlardan kerakligini tanlab olishni o'rgatishga qaratilgan.

Intervyu texnikasi - talabalarni savol berish, eshita olish, to'g'ri javob berish, savolni to'g'ri tuzishni o'rgatishga qartilgan.

Bumerang texnikasi - o'qituvchi talabalarni dars jarayoniga, darsdan tashqari turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o'rganilgan materialni yodida saqlab qolish, so'zlab bera olish, fikrni erkin holda bayon eta olish hamda bir dars davomida barcha talabalarni baholay olishiga qaratilgan.

Talaba treningi- talabalar bilan induvidial holda ishlash o'qituvchi va talaba o'rtasidagi to'siqni yo'q qilish, hamkorlikda ishlash yo'llarini o'rgatishga qartilgan.

Muloqot texnikasi - auditoriya diqqatini o'ziga jalg etish, dars jarayonida faoliyat ko'rsatishiga uni tashkil etishni o'rgatishga qaratilgan.

Boshqaruv texnikasi - o'qituvchilarni auditoriyani boshqarish hamda o'quvchilarni ish jarayonida boshqarish usullari bilan tanishtiruvchi va shunga o'rgatishga qartilgan.

Loyixaviy o'qitish texnologiyalari- zamонавиъ та'limдаги innovatsion jarayonlar an'anaviy o'qitishni produktiv o'qitishga aylantirish yo'llarini izlashdan iborat. U ishlab chiqarish va insonlarning hayoti uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan natija, mahsulot olish uchun o'quvchilarninh faol ijodiy tadqiqot faoliyatini tashkil qilishga asoslangan.

Produktiv o'qitishning maqsadi mutaxassisni ijtimoiy tarbiyaviy bunyodkorlik jarayoninig sub'ekti siftida tayyorlashdir. Uni o'rab turgan muhitga oddiygina singib ketmasdan, balki o'quv jarayonida olingan turli xildagi ijtimoiy va ishlab chiqarilgan muammolarni yechish tajribasidan unumli foydalanishdir. Produktiv o'qitishning mohiyati o'quv jarayonining mohiyatini o'zgartirishdan iboratdir. An'anaviy o'qitish jarayoni tafakkurning nazariyadan amaliyotga harakatidan iborat. Produktiv o'qitish esa boshqacharoq mantiq bilan quriladi: amaliyotdan o'rganishga, o'qishga.

Kompyuterli o'qitish texnologiyalari- o'qituvchini mashaqqatli muammolardan ozod qilish bilan birga, unga o'quvchilar bilan barcha ijodiy munizara qilish, birgalikda tadqiqot qilish, o'qitishning yangi shakllariga, bir so'z bilan aytganda ko'proq ijodiy ishga o'tishga imkon beradi.

Kompyuter bizga quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- Interfaollik
- Multimediya
- Modellashtirish
- Kommunikativlik
- Unumdarlik

O'quv jarayonida bir vaqtning o'zida pedagog va kompyuterning ishtiroki ta'lif sifatini ancha oshiradi. Taklif qilingan metodikadan foydalanish dars berish jarayonini faollashtiradi, talabalarni o'qilayotgan fanga qiziqishlarini orttiradi va o'quv materialini chuqr o'zlashtirishga imkon beradi. Kompyuter va pedagog hamkorligi bir tomondan turli toifadagi talablarga o'quv materialini yaxshi tushunib olishlariga yordam beradi. Boshqa tomondan u o'qituvchi malakasi va tayyorgarlik darajasiga ancha yuqori talablar qo'yadi. Endi nafaqat an'anaviy o'qitish usullarini egallash, balki o'rganuvchilarning xususiyatiga qarab, fan va texnika yutuqlaridan foydalanib ularni modernizatsiya qila olishi lozim bo'ladi.

Internet tarmog'ida o'qitish. Internet hozirgi kunda axborot texnologiyalari tizimining ajralgan qismi bo'lib, undagi asosiy bo'g'in bu o'zaro bir-biri bilan bog'liq kompyuterlardir. Kompyuterlar aloqa vositalaridan farqli o'laroq, foydalanuvchiga ma'lumotni ko'rish, o'qish va eshitish asosida ma'lumotdan unumli foydalanishga imkon yaratadi. Bundan tashqari unda ma'lumotni uzatish, qabul qilish tezligi o'ta yuqori bo'ladi. Oxirgi yigirma yilda ta'lif tizimi ishida yuzaga kelgan vaziyatda zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarni takomillashtirish va zamonaviylashtirish masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda. Lekin, o'quv jarayonining amaliyotga aezonligi uchun hammabop, lokal tarmoqqa ulangan va shuning uchun dunyo miqyosidagi global internet tarmog'iga kirish imkoni bo'lgan shaxsiy kompyuterlarning joriy qilinishi, bu ishlarni yanada jadallashtirish, o'rta ma'lumotni ko'pincha kompuyuterlashtirishga va interlashtirisgha asoslangan, zamonaviylashtirish dasturini muvafaqqiyatli amalga oshirish uchun, nafaqat o'quv maskanlari zamonaviy texnika vositalari bilan ta'minlanmog'i, balki ta'lif tizimining tashkilotchilari va pedagoglari ham bu sohada yetarli bilimga ega bo'lishlari kerak.

Kichik guruhlarda ishlash.

Kichik guruhlarda ishlash talabalarining darsda faolligini ta'minlaydi, har biri uchun munozarada qatnashish huquqini beradi, bir-biridan o'rganish imkonи tug'iladi, boshqalar fikrini qadrlashga o'rgatadi.

Qo'llash usuli.

Faoliyatni tanlash. mavzuga oid muammoga shunday tanladiki, natijada talabalar uni o'rganish, bajarish uchun ijodiy faoliyat ko'rsatishlari zarur bo'ladi va vazifalar belgilab olinadi.

Zaruruiy asos yaratish. Talabalar kichik guruh ishida qatnashishlari uchun tanlangan faoliyat bo'yicha ba'zi bilim, ko'nikma va malakalarni oldindan egallagan bo'lishlari shart.

Guruhn ni shakllantirish. Odatda har bir guruh 3-5 talaba bo'ladi. Agar guruhda ishlash u yoki bu yozma hujjat tayyorlashni talab etsa, yaxshisi 2-3 kishidan guruh tuzilgani ma'qul. Guruh o'lchovi masalaning muhimligi, auiditoriyada talabalar soni, talabalarning bir-birlari bilan konstruktiv holatda o'zaro harakatiga bog'liq holda o'zgaradi. Eng yaxshisi, "geteregon" guruh tashkil etishdir.

Guruhda ishlash. Talabalar o'rtaida vazifalarni aniq taqsimlashga tayanadi. Masalan: bir talaba munozarani boshqaradi, ikkinchisiyo zib boradi, uchinchisi sardor rolini o'ynaydi. Auiditoriyani guruhlarga ajratish, hohish bo'yicha yoki xisob bo'yicha amalga oshiriladi.

2- Bobdan xulosalar.

Chet til o'rgatish jarayonida bir qator pedagogik texnologiyalardan foydalanish mumkin. Shulardan biri bu- interaktiv texnologiyadir. Interaktiv (interactive) dialogli interfaol ta'lim- ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rta sidagi o'zaro harakatni amalga oshiruvchi dialogli ta'lim hisoblanadi. Chet til o'rgatish jarayonida interaktiv texnologiyalardan foydalanib, dars jarayonini tashkil etilsa o'quvchilarga tilni oddiydan murakkabga qarab o'rgatilib borilishiga erishiladi. Bunday interfaol usullar darsni faolligini oshiradi. Ta'lim- tarbiya jarayonida ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni samarali joriy etish samarali ta'lim

jarayonini tashkil etadi. Dars jarayonida interaktiv texnologiyalardan foydalanilsa o'quvchilarda hamkorlik bilan ishslash sifatlarini ham shakllanadi. Agar zamonaviy axborot-kommunikatsiya ta'lif jarayonida yuqoridagi hamkorlik texnologiyasini talabga mos ravishda amalda qo'llashga erishilsa, o'qituvchi va o'quvchilarining dars jarayonidagi ko'zlangan maqsadlariga erishlari yengillashadi. Interfaollik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, ta'lif jarayoni ham shunchalik samarali bo'ladi. Hozirgi davr o'qitish shakllari talabalarni erkin ijodiy fikrlashga, ishlashga yo'naltirganligi bilan ahamiyatlidir. Har bir dars, mavzu, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor, ya'ni o'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya bu yakka tartibdagi jarayon bo'lib, u o'quvchi talabaning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir.

3-BOB. Og'zaki nutq malakalarini rivojlantirishda interaktiv texnologiyalardan foydalanish.

Til o'rgatish va gapireshni o'rgatish tushunchalari bir-birian tubdan farq qiladi. Agar til o'rgatish deganda til hodisalari va ular haqidagi bilimlar yuzasidan ma'lumot berish tushunilsa, gapireshni o'rgatish deganda fikrni og'zaki bayon qilish ko'nikmalarini shakllantirish va malakalarini rivojlantirish nazarda tutiladi. Gapiro olish uchun kommunikativ layoqatni egallash lozim. Kommunikativ layoqat deganda kishining fikr almashish, muloqot qila olish layoqati tushuniladi. Muloqot layoqati quyidagilardan tashkil topadi:

- suhbatdoshlarga voqe-a-hodisa haqida gapirib bera olish;
- suhbatdoshning javobini tushuna olish va izohlay bilish;
- javoblarga mos munosabat bildira olish.

Ushbu malakalardan birortasi rivojlanmay qolsa muloqot layoqati to'la-to'kis bo'lmaydi. Agar gapiruvchi tinglovchi rolini ham talab darajasida bajara olsagina unda muloqot layoqati rivojlangan hisoblanadi.

Psixolingivistik tadqiqotlarning dalolat berishga ko'ra gapirish jarayoni uch bosqichdan tashkil topadi:

- 1) Tuzish bosqichi: nutq vaziyati va nutqni qabul qiluvchi hisobga olgan holda nima, qanday bayon qilinishi lozimligi rejalashtiriladi.
- 2) Ko'chirish bosqichi: nimni va qanday gapga ko'chirish, o'tkazish kerakligini rejalashtiriladi.
- 3) Ijro bosqichi: og'zaki bayon qilish, ya'ni artikulatsiya va tana tili orqali fikrni yuzaga chiqarish.

Gapirishni o'rganish jarayonida bir qator qiyinchiliklar sodir bo'ladi bu qiyinchiliklar mashq qilish orqali bartaraf qilinadi. Ta'lim jarayonida bir qator holatlar borki, ular aksariyat o'quvchilarda uchraydi. Quyidagi jumlalar gapirish jarayonidagi qiyinchiliklardan dalolat beradi. Chet tillarni o'rganishda qiyinchilik asosan ikkinchi va uchinchi bosqichlarda sodir bo'ladi. Garchi gapirish va yozish nutq faoliyatining produktiv turi bo'lsa ham ular o'rtasida katta farq bor. Bu farqni quyidagi uch sohada kuzatish mumkin:

1. Gapirish uchun artikulatsiya muhim.
2. Gapirishga ajratilgan vaqt yozishga nisbatan cheklangan, vaqt tanqisligi mavjud.
3. Gapirish har doim tana tili bilan bog'liq.

Nutqlar o'z navbatida ikki guruhga bo'linadi.

Og'zaki va yozma. Gapirish va tinglab tushunish nutq faoliyatining og'zaki turiga mansub bo'lganligi uchun ham umumiy xususiyatlarga ega. Bular ichki nutq va faraz qilish faoliyati bilan bog'liq. Tinglab tushunish va gapirishni o'rgatish jarayonida nutq faoliyati turlarining umumiy xususiyatlarni hisobga olish metodik jihatdan muhimdir. N.I.Jinkin ta'kidlanganidek, nutqni tinglab tushunishni o'rganish uchun gapirish lozim. Tushunish gapirish jarayonida, gapirish esa tushunish jarayonida shakllanadi. Gapirish va tinglab tushunish nutq faoliyatining o'qish va

yozish turlari bilan uzviy bog'liq. Yozuv og'zaki nutq asosida paydo bo'lgan. Yozuv og'zaki nutqni qog'ozga tushirish imkonini beradi. O'qish og'zaki nutqdan yozuvga o'tish vositasi bo'lib xizmat qiladi. O'qish va yozishni o'rganish nutqni tinglash qobiliyati va artikulyatsiyani rivojlantirish bilan bog'liq. Garirish, gaplashish, o'qish jarayonida og'zaki nutq rivojlanib boradi.

Muammoli o'qitish texnologiyasi.

Barchamizga ma'lumki zamonaviy ta'lim texnologiyasida muammoli ta'lim alohida o'rinni egallaydi. Muammoli ta'lim texnologiyasining zamirida yoki bir-biriga bog'liq bo'lgan muammolar zanjiri yotadi.

Muammoli ta'lim metodiga asoslangan ta'lim jarayoni quyidagi to'rtta bosqichda amalga oshiriladi.

- Muammoli vaziyat hosil qilish;
- Muammolarni shakllantirish va muammoni yechish uchun umumiylahvil qilish;
- Tahmin qilingan yechimni tekshirish;
- Amaliy va nazariy xarakterdagi masalalarda qo'llash, ularni tartibga solish hamda **siyosatlashtirish**.

Dars jarayonida o'quvchi muammoni yechar ekan, o'zicha muhim bo'lgan "kashfiyot" qiladi. Bu hol o'quvchida o'ziga ishonch hosil qiladi(ya'ni mening kashfiyotim, men topdim, ixtiro qildim) mana shutomoni bilan muammoli ta'lim texnologiyasi boshqa barcha o'qitish texnologiyalaridan ustun turadi. Chunki bunda o'quvchi izlanish olib borish, taxlil qilish, empirik xulosa chiqarish, boshqa vaziyatga qo'llash, fikr mulohazalarini taxminan sistemalashtirib isbotlash kelgusida amaliy faoliyatga qo'llash malakalarini egallab boradi. Muammoli ta'lim an'anaviy o'qitish metodikasiga tayanadi. O'qituvchi muammoli vaziyatni o'quvchilar oldiga qo'yish bilan bir qatorda, uni yechish uchun izlanish zarurligini, izlanish usullarini o'quvchilarga o'rgatadi.

Muammo yechimini topish, izlashga o'tish uchun, eng avvalo zaruriy muhit yaratilishi kerak. Muammo aniq bo'lishi, o'quvchilar uni yechimini izlash jarayonida oldingi mavzularda, fanlarda olgan ma'lumotlarni, tushunchalari, bilimlardan foydalana oladigan bo'lishi kerak. O'quvchilar oldiga qo'yilgan muammo o'zining dolzarbligiga ega bo'lishi ham muhim ahamiyatga ega. O'quvchi izlanishni ma'lum bir sistemada, muayyanlikda bo'lgan muammo ustida olib borish kerak. Shunda o'quvchi muammoni tahlil qiladi, qismlarini ajrata oladi va yechish uchun kirishadi.

Ta'lim jarayonini loyihalash bevosita muammoli ta'lim ta'limni loyihalashga olib keladi. Muammoli o'qitish texnologik loyihalashtirilgan o'quv jarayonini amalga oshirishning didaktik konstruktsiyasi sifatida qo'llaniladi. Amerikalik olim U.Gordon o'quvchilarga muammolarni, uning tashkil qiluvchi elementlarini shakllantirishni o'rgatishni, izlashning bosh maqsadini ajrata bilishni, turli-tuman xarakterdagi masalalar yechimining o'xshashlarini qidirishni o'rgatish muammoli ta'lim jarayoni uchun muhimligini ta'kidlaydi. O'qituvchi muammoni qo'yishnigma bilibgina qolmay uning yechimini topish usullarini o'quvchilarga o'rgatishi kerak. Muammoni to'g'ri (muayyan masalaga o'xhash, masalalar qanday yechiladi), shaxsiy (muayyan masalada berilgan ob'ekt obraziga kirishga xarakat qilish va shu nuqtai-nazardan mulohaza yuritishga urinib ko'rish), simvolistik (ikki jumla orqali masalaning mohiyatini obrazli aniqlashni berish), fantastik (bu masalani ertak qahramonlari qanday yechgan bo'lar edilar). Muammoli vaziyatni bunday usulda yechishga o'rgatish orqali o'quvchilarni sintetik, abstraktsiyalash, fantaziya qilish, o'zgalarni eshitish, oddiydan g'ayri oddiyni, g'ayri oddiydan oddiyni topish, o'xshatishlardan mohirona foydalanish ko'nikmalari shakllantiriladi.

Muammoli ta'lim jarayonida o'qituvchi o'quvchilar o'rtasida fikrlar almashinishini boshqarish; ishinchli dallillar asosida o'z fikrida tura olish; muxolif tomonning fikrini munozara qilish; malakasini rivojlantirish; o'quvchini aktiv fikrlash faoliyatiga asoslash, masalani dolzarblashtirish,

o'z fikrini bayon qilishnigina emas, balki boshqalarni ham eshitish mahoratini rivojlantirish, o'quvchilar bildirgan fikrlardan foydali axborotni olish va zarur xulosalar chiqarish va o'quvchilar ixtirochilik, tadqiqotchilik, loyihalovchilik kabi zaruriy sifatlarni shakllantirishdir.

Muammoli ta'lim- bu mantiqiy fikrlash operatsiyasi (tahlil, umumlashtirish) va o'quvchilarning izlanishli faoliyati qonuniyatlarini (muammoli vaziyat, bilishga qiziqish, ehtiyoj) hisobga olib tuzilgan ta'lim va o'qitishning ilgari ma'lum bo'lgan usullarini qo'llash qoidalarining yangi tizimidir. Shuning uchun ham muammoli ta'lim ko'proq o'quvchi fikrlash qobiliyatining rivojlanishini, uning umumiyligi rivojlanish va e'tiqodining shakllanishini ta'minlaydi. Didaktikaning barcha yutuqlarini istisno qilmay, balki ulardan foydalangan holda muammoli ta'lim ilmiy bilim va tushunchalarini, dunyoqarashni shakllantirish, shaxs va uning intelektual faolligini har tomonlama rivojlantirish vositasi sifatida rivojlantiruvchi ta'lim bo'lib qoladi.

Didaktikada muammoli o'qitish yangi yo'nalish sifatida XX asrning 70-80 yillarida yuzaga keldi. A.M.Matoshkin, T.V.Kudryashev, M.I.Maxmutov, I.Ya.Lernerlar muammoli o'qitish qonuniyatlarini chuqr o'rgandilar.

An'anaviy didaktika butun e'tiborni o'qituvchi faoliyatiga qaratgan endi va ta'lim jarayoni deganda asosan o'qitish jarayonini ko'zda tutgan edi, ko'pincha o'quvchilarning reproduktiv faoliyti bayon qilinar edi, xolos. Hozirgi zamon didaktikasi o'quvchilarning mustaqil o'quv-bilish faoliyatiga e'tiborni kuchaytirdi. Muammoli ta'lim nazariyasi o'quvchi intelektual kuchining rivojlantiruvchi ta'limni tashkil qilishning psixologik-pedagogik yo'llari va usullarini tushuntiradi.

Muammoli vaziyatlarning roli va ahamiyatini aniqlash o'quvchi faol fikrlash faoliyatining psixologik-pedagogik qonuniyatlarini izchil ravishda hisobga olish asosida o'quv jarayonini qayta qurish g'oyasiga olib keldi. Yangi pedagogik faktlarni nazariy jihatdan mulohaza qilib ko'rish asosida

muammoli ta'limning asosiy g'oyasi aniqlanadi: muammoli ta'limda bilimning deyarli katta qismi o'quvchilarga tayyor holda berilmaydi, balki o'quvchilarining tomonidan muammoli vaziyat sharoitlarda mustaqil bilish faoliyati jarayonida egallab olinadi.

Ma'lumki, shaxsning har tomonlama va garmonik rivojlanishining muhim ko'rsatkichlari yuqori darajada fikr yurutish qobilyatining mavjudligidir. Agar ta'lim ijodiy qobilyatini rivojlantirishga olib borsa, u holda uni so'zning zamonaviy ma'nosida rivojlanishni bilimga tayangan holda, maxsus pedagogik vositalar yordamida o'z o'quvchilarini fan asoslarini o'rganish jarayonida fikrlash qobilyati va bilish ehtiyojini oshiradi.

Bugungi kunda, muammoli o'qitish deganda mashg'ulotlarda pedagog tomonidan yaratiladigan muammoli vaziyatlar va ularni yechishga qaratilgan tinglovchilarining faol mustaqil faoliyati tushuniladi. Buning natijasida tinglovchilar kasbiy bilimlarga, ko'nikmalarga, malakalarg ega bo'ladilar va fikrlash qobilyatlari rivojlanadi.

Muammoli o'qitish, o'qitishning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarga talluqli, chunki bu yerda shaxs sub'ekt sifatida qaraladi, muammoli vaziyatlarning maqsadi-pedagogik jarayonda o'ziga xos qiziqish uyg'otishdir. Muammoli o'qitish, o'qitishning eng tabiiy samarali uslulidir, chunki ilmiy bilimlar mantig'I o'zida mammoli vaziyatlar mantiqini namoyish etadi.

Muammoli vaziyatlar kiritilib, an'anaviy, bayon etish o'quv materialining eng maqbul tarkibi hisoblanadi. Pedagog muammoli vaziyat yaratadi, tinglovchini uni yechishga yo'naltiradi, yechimini izlashni tashkil etadi. Muammoli o'qitishni boshqarish pedagogik mahoratni talab etadi, chunki muammoli vaziyatning paydo bo'lishi individual holat bo'lib, tabaqa lashtirilgan va individual lashtirilgan yondashuvni talab etadi.

Muammoli o'qitish ijod jarayonidan nostonart usullar bilan yechishni taqozo etadi. Tahsil oluvchilarga mashq uchun beriladigan

masalalar, olingen bilimlarni mustahkamlash va malakalar hosil qilish uchun xizmat qilsa, muammoli masalalar esa faqat yangi yechimlar izlashga qaratiladi. O'quv materialini muammoli taqdim etilishining mohiyati shundaki, unda ma'ruzachi bilimlarni tayyor holda taqdim etmasdan, tinglovchilar oldiga muammoli masalalar qo'yadi, ularni yechimining yo'llari va vositalarini izlashga undaydi. Muammo, yangi bilimlar va harakat usullari sari, o'zi yo'lga boshlaydi. Shuni ta'kidlab o'tishi lozimki, bu yerda yangi bilimlar ma'lumot uchun emas, balki muammo yoki muammolarni yechimi uchun beriladi. An'anaviy pedagogik usuldag'i-bilimlardan muammoga qarab-tinglovchi mustaqil ilmiy izlanish, ko'nikma va malakalarini hosil qila olmaydi, chunki ularga o'zlashtirish uchun tayyor natijalar taqdim etiladi. Muammoning yechimi ijodiy fikrlashni taqozo etadi. O'zlashtirilgan bilimlar shablonlarni takrorlash bilan bog'liq bo'lgan reproduktiv, psixik jarayonlar, muammoli vaziyatlarda hech qanday samara bermaydi.

Ta'lim berishning eng samarali usullaridan bo'lib, u asosan ilmiy bilimlar asosida muammoli vaziyatlar mantiqini shakllantiradi. Unda o'qituvchi avvalo muammoli vaziyat yaratadi, savollar qo'yadi, masalalarni, tajriba topshiriqlarni taklif qiladi, ularni yechishga qaratilgan muhokamani uyushtiradi, xulosalarning to'g'riligini tasdiqlaydi. Ta'lim oluvchilar oldingi bilim va ko'nikmalarga asoslanib, muammoli vaziyatni hal qilish yo'llarini qidiradilar va takliflaar kiritadilar. Hodisalar sabablarini aniqlagan holda ularni kelib chiqishini tushuntiradilar, muammoli vaziyatni yechishning eng oqilona variantini tanlaydilar. Bu usul ta'lim oluvchilarning qiziqishlarini oshiradi, fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Biz o'qitish jarayonida muammoli o'qitish texnologiyasini quiyidagi usul va metodlar orqali ko'rishimiz mumkin.

Dumaloq stol usulini qo'llash metodikasi. Birinchi bosqich: guruh o'rindiqlarga doira bo'yicha o'tirib olishadi. O'qituvchi muammoni yoki

savol ifoda etadi. ikkinchi bosqich: belgilangan vaqt mobaynida har bir o'quvchi indivudial ravishda qo'yilgan muammoni yechish yo'larini yozib oladi. Uchinchi bosqich: aylana bo'yicha har bir o'quvchi o'zining takliflarini bayon qiladi. Guruhning qolgan a'zolari uning fikrini izohlamy, tanqid qilmay, jim eshitishadi va har bir band bo'yicha taklifni umumiy qarorga kiritsh yoki kiritmaslik haqida ovoz berishadi. Umumiylar qarorga kiritilgan takliflar doskaga yozib boriladi.

Klaster tarmoq metodi- pedagogik strategiyasi bo'lib, u ko'p variantli fikrlash o'r ganilayotgan tushuncha, voqealari, hodisalar o'rtasida bog'lanish, o'rnatish malakalarini rivojlantiradi. Erkin va ochiqdan-ochiq fikrlashga yordam beradi. "klaster" so'zi g'unch, bog'lam ma'nosini bildiradi. Klaster tuzish ketma-ketligi:

- 1) sinf o'quv taxtasi o'rtasiga tayanch so'z yoki ibora yoziladi.
- 2) kichik guruhdagi yoki yakka tartibdagi talabalarga ushbu so'z yoki iboraga tegishli bo'lgan so'zlar yoki gaplarni yozishni talab qilib aqliy hujum o'tkaziladi.
- 3) tushuncha yoki g'oyalar o'rtasidagi bog'lanishni o'rnatish talab etiladi.
- 4) eslangan variantlarning barchasini yozish tavsiya etiladi.

"T" sxema- bu qiyosiy kattaliklar universal grafik tashkilotchisi bo'lib, u biri-biridan kesin farq qiluvchi o'zaro qarama-qarshi va ba'zi me'zonlar bilan farq qiluvchi tasvirlashga qulaylik yaratadi.

Keys stadi tenologiyasini ta'lim jarayonida qo'llash.

Keys staid - inglizcha **cace-study** so'zlaridan olingan bo'lib, bunda "**case**"-yashik, quti, g'ilof, jild, "**study**"- o'r ganish, tadqiq qilish, ilm bilan shug'illanish, o'quv fani, saboq olish, o'qish ma'nolarni bildiradi. Bu metod haqida inglizcha aytiladigan "**case- true life**", ya'ni "keys- haqiqiy hayot" iborasiga ko'ra keys- real hayotning "bir parchasidir". Shunga ko'ra bu metodni "amaliy holatlarni o'qitish metodi" deb ham ataladi. U aniq vaziyatlarni o'r ganish, tahlil etish va ijtimoiy ahamiyatga ega

natijalarga erishishga asoslangan ta’lim metodidir. Keys stadi metodi bo'yicha o'rganilayotgan har bir muammo yoki mavzu yuzasidan amalga oshiriladigan ishlar rejasi, ularni bajarish tafsiloti, natijalar va xulsalar yig'indisi alohida keysni tashkil qiladi. Bu metod ta’lim jarayonida hayotiy vaziyatlardan foydalanishga qaratilgan. Bu esa, hozirgi kunlarda ta’lim sohasidagi dolzarb bo'lган muammolardan hisoblanadi. Ushbu muammoni hal qilish imkonini berishi bu metodning alohida ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatib turibdi.

Shu sababli G'arb mamlakatlaridagi ta’lim muassasalarida keys-stadi metodidan, ya’ni keyslardan foydalanish o’quv rejasining 25%ni tashkil qiladi. Shu munosabat bilan ta’lim muassasalarida hayotiy vaziyatdan foydalanishning ahamiyati haqida qisqacha to’xtalib o’tamiz.

Keys-stadi ta’lim metodini turli holatlarni o’rganishda qo’llash-hayotdan olingan odatdagi vaziyatlarni o’rganishni tashkil etish yoki sun’iy yaratilgan vaziyatlarga asoslangan holda ta’lim oluvchilardan tegishli muammolarning maqsadga muvofiq yechimlarini izlashni talab qilishga qaratilgan ta’lim jarayonidan iborat. Bu metod ta’lim oluvchilarga mavzuga tegishli hayotiy vaziyatni tashxis qilish, farazlarni ifodalash, muammolarni aniqlash, qo’shimcha axborotlarni yig’ish, farazlarga aniqlik kiritish va muammolarni yechish hamda ularni bajarishning aniq bosqichlarini loyihalash bo'yicha amaliy faoliyatlarini modellashtirish imkonini beradi.

Muayyan hayotiy vaziyatlarga bag’ishlangan keyslardan foydalanish ta’lim beradi. Muayyan hayotiy vaziyatlarga bag’ishlangan keyslardan foydalanish ta’lim jarayonini haqiqiy hayot bilan bog’laydi. Keysni ko’rib chiqishda ta’lim oluvchilar ta’lim olish jarayonini yaratadilar. Shu jarayondagi o’zaro harakatda ularning haqiqiy fikr almashish holatlari kelib chiqadi. Keys ta’lim oluvchilarga tahlil qilish, qiyoslash yo’llarini qidirish va muammoni yechish erkinligini beradi. Keys va keys-stadi tushunchalarning ma’no-mazmuni ko’p qirrali bo’lib, shunga ko’ra quyidagi

ularning asosiy xususiyatlarini to'liqroq aks ettirish maqsadida ko'p variantli ta'riflari berildi.

Keys

- 1) ta'lim oluvchilarning ma'lum maqsadlardagi hayotiy vazifalarni bajarishlari bo'yicha vaziyatning bayoni, uni tushunish va baholashga imkon beradigan hamda muammoni ifodalash uchun, uning maqsadga muvofiq yechimini izlashlari uchun kerak materiallar to'plami;
- 2) belgilangan mavzu yoki muammo va uning yechimiga doir qo'shimcha axborotlar, audio, video, electron tashuvchilar, o'quv usuliy materiallar yig'indisi;
- 3) muammoni hal qilish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar, ularning natijalari va xulosalar;

Keys stadi

- a) ta'lim oluvchilarni o'rganilayotgan muammoni ifodalash hamda uning maqsadga muvofiq yechimi variantlarini izlashga yo'naltiradigan aniq real yoki sun'iy ravishda yaratilgan vaziyatning muammoli-vaziyatli tahlil etilishiga asoslanadigan ta'lim metodidir.
- b) ta'lim, axborot-kommunikatsiya, boshqaruv va boshqa sohalarni o'rgatishda qo'yilgan ta'lim maqsadini amalga oshirish va keysdan bayon qilingan amaliy muammoli vaziyatni hal qilish jarayonida oldindan belgilangan o'quv natijalarriga kafolatli erishishni vositali tarzda ta'minlaydigan, bir tartibga keltirilgan optimal usullar va vositalar majmuidan iborat bo'lgan ta'lm texnologiyasidir.

Keys stadi metodi tarixi.

Keys-stadi amaliy vaziyatlarni tahlil etish va hal qilish asosida o'qitish metodi sifatida xorijiy ta'limda dastlab huquq sohasida qo'llanila

boshladi. U ilk marta Garvard universitetining huquq maktabida 1870-yilda qo'llanilgan edi. 1920 yilda Garvard biznes-maktabi o'qituvchilari yuristlarning o'qitish tajribasiga tayanib, iqtisodiy amaliyotdagi aniq vaziyatlarni tahlil etish va muhokama qilishni ta'limning asosiy usuli etib tanlashganidan keyin mazkur o'qitish usuli keng tadbiq etila boshladi. Ana shu vaqtdan boshlab GBMkeslarining boy to'plamini yig'di va mazkur metodni ta'limning mustaqil konseptsiyasi darajasiga olib chiqdi. Ayni shu sababga ko'ra, keys-stadi metodini ko'incha Garvard metodi deb ham ataladi. O'z mohiyatiga ko'ra, Garvard metodi ta'lim oluvchilarning amaliy vaziyatlarni videomateriallar, kompyuter va dasturiy ta'minotdan foydalanib hal qilish bo'yicha intensiv trenningidan iboratdir.

Mazkur metod muammoli ta'lim metodidan farqli ravishda real vaziyatlarni o'rganish asosida aniq qarorlar qabul qilishga asoslanadi. Agar u o'quv jarayonida ma'lum bir maqsadga erishish yo'li sifatida qo'llanilsa, metod harakteriga ega bo'ladi, biror bir jarayonni tadqiq etishda bosqichma-bosqich, ma'lum bir algoritm asosida amalga oshirilsa, texnologik jihatni o'zida aks ettiradi. Keysd bayon qilingan va ta'lim oluvchilarni muammoni ifodalash hamda uning maqsadga muofiq tarzdagi yechimi variantlarini izlashga yo'naltirilgan aniq real yoki sun'iy ravishda yaratilgan vaziyatning muammoli- vaziyatli tahlil etilishiga asoslanadigan ta'lim usulidir.

Keys staid - ta'lim, axborotlar, kommunikatsiya va boshqaruvning qo'yilgan ta'lim maqsadini amalga oshirish va keysda bayon qilingan amaliy muammoli vaziyatni hal qilish jarayonida prognoz qilinadigan o'quv natijalariga kafolatli eshitishni vositali tarzda ta'minlaydigan bir tartibga keltirilgan optimal usullari va vositalari majmuidan iborat bo'lgan ta'lim texnologiyasidir.

Keys stadi maktablari.

Keys stadini ishlab chiqishining ikki klassik maktabi mavjud: Garvard (Amerika), Manchester (Yevropada). Aniq vaziyatning yechimini topishning o'rganish yo'li: yagona to'g'ri ko'p variantli yechimlar, o'nlab sahifali matnni va ko'plab chizmalarini o'z ichiga oladi, hajim birmuncha kamroq. Garvard maktabi doirasida mazkur metod yagona to'g'ri yechimni izlashni o'rgatish metodi hisoblanib, ikkinchi maktab keysda bayon qilingan muammoli vaziyat yechimining ko'p variantligini taklif qiladi. Amerika keyslari o'nlab sahifali matnni va ko'plab chizmlarni o'z ichiga oladi. Yevropa keyslari hajmi birmuncha kamroq. Mamlakatimizdagi ta'lif sohasida keys-stadi, asosan, mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida, ayniqsa boshqaruv sohasida qo'llaniladi. Keying yillarda oliv o'quv yurtlarida ham o'qituvchilarning keyslarni ishlab chiqish va amalga oshirishga qiziqishi oshayotganligi kuzatilyapti.

Keyslar tipologiyasi va ularning turlari.


Hajmi – qisqa, o'rtacha hajmdagi, katta.

Tuzilmaviy o'ziga xos xususiyatlari- aniq strukturaga ega bo'lgan, aniq strukturaga ega bo'lмаган.

O'quv topshirig'ini taqdim etish usuli- savolli topshiriq tarzidagi.

Didaktik maqsadlari- muammo, yechim yoki konsepsiyanı izohlash, biror mavzuga bag'ishlangan trenning mashg'uloti va fan bo'yicha ko'nikma va malakalarni hosil qilishga mo'ljallangan, tahlil va baholashga o'rgatuvchi, muammoni ajratish va yechish, boshqaruvga doir qarorlar qabul qilishga o'rgatuvchi.

Taqdim etish usuliga ko'ra- bosma, elektron, video keys, uidio keys, multimedia



Yuqoridagi chizma orqali biz keys stadini amalga oshirish bosqichini ko'rishimiz mumkin. ochiq darslarni keys stadi orqali tahlil qiladigan bo'lsak, unda ishtrok etgan o'quvchilar haqida ma'lumot beriladi, dars davomida o'quvchilarning qatnashish jarayoni, ularning faolligi, o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligi, dars jarayonida qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalarning turlari va ularning o'quvchilarni faolligini oshirishini tahlil qilinadi. ochiq darsni noan'anaviy dars jarayoni tahlil qilinganligini ham tahlil qilinadi , o'quvchilarning faolligi, ularning dunyoqarashi, qiziqishini orttirishda

pedagogik texnologiyalarninig ahamiyati sezilarli darajada ekanligini bilib olishimiz mumkin.

Eng avvalo shu mavzu bo'yicha to'liq ma'lumotlarga ega bo'ladi, rag'batlantirish natijasida o'quvchilarning darsga va shu tilga bo'lgan qiziqishi uyg'ondi, shu bilan birga pedagogik texnologiya o'quvchilarning ham ruhiy ham jismoniy shakllantiradi.

Keys stadi texnologiyasini amalga oshirish ish bosqichlari:

- Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish,
- Muammoli vaziyatni aniqlashtirish va muammoli topshiriqni belgilash,
- Muammoli topshiriq yechimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish,
- Muammoli topshiriq yechimini shakllantirish va asoslash.

Keys stadi texnologiyasini amalga oshirishda faoliyat shakli va mazmuni:

- Yakka tartibdagи audio-vizual ish, vaziyat bilan tanishish, axborotni umumlashtirish, axborot tahlili, muammolarni aniqlash.
- Individial va guruhda ishslash, muammolarni dolzarblik ierarhiyasini aniqlash, asosiy muammoli vaziyatni belgilash.
- Individual va guruhda ishslash, muqobil yechim yo'llarini ishlab chiqish, har bir yechimning imkoniyatlari va to'siqlarini tahlil qilish, muqobil yechimlarini tanlash.
- Yakka va guruhda ishslash, muqobil variantlarini amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash, ijodiy loyiha taqdimotini tayyorlash, yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy jihatlari.

Keys texnologiyasini loyihalashtirish.

- Ishchi dasturi asosida o'quv mashg'uloti shakli, turi va vaqtini belgilaydi (amaliy mashg'ulot, mustaqil ish, o'quv amaliyoti).

- O'quv mashg'uloti maqsadini oydinlashtiradi, o'quv mashg'ulotidan kutiladigan natijalar va pedagogik vazifalarni belgilaydi.
- Ta'limning optimal modelini (belgilangan vaqtida va qaror topgan sharoitlarda qo'yilgan maqsadning amalga oshirilishini va prognoz qilinadigan o'quv natijalariga erishishni kafolatlaydigan optimal ta'limg metodlari, shakl va vositalari majmui)ni tanlash.

O'quvchilar tomonidan keysni yechish bosqichlari:

Jahon tajribasi ko'rsatishicha, agar o'quvchilarning keysni hal etish texnologiyasi ikki bosqichdan iborat bo'lsa, ta'limiy maqsadlarga erishishda yanada ko'proq samaraga erishish mumkin:

Birinchi bosqich- keysni hal etish bo'yicha individual (auditoriyadan tashqari) ish.

Ikkinci bosqich- keys bilan birgalikda jamoa bo'lib(auiditoriyada) ishslash.

Bobdan xulosalar.

Chet til o'rgatish jarayonida og'zaki nutq malakalarini rivojlantirishda interaktiv texnologiyalardan foydalanish yuqori samara beradi. Tilni o'rgatish deganda til hodisalari va ular haqidagi bilimlar yuzasidan ma'lumot berish tushunilsa, gapirishni o'rgatish deganda fikrni og'zaki bayon qilish ko'nikmlarini shakllantirish va malakalarini rivojlantirish nazarda tutiladi. Og'zaki nutqda talaffuz katta ahamiyatga ega. Tallaffuz aniq bo'lsa nutq tushunarli bo'ladi . chet tildagi harflarni talaffuz qilinishi ilk til o'rganuvchilarga biroz qiyinchilik tug'diradi. Bu esa og'zaki nutqni o'rgatish jarayonida yechimini topish zarur bo'lgan muammoga aylanadi. O'quvchilarda chet til o'rgatish jarayonida og'zaki nutq ko'nikma va malakalarini shakllantirish va rivojlantirish uchun bir qator ta'limg texnologiyalaridan foydalanish mumkin. Jumladan, muammoli o'qitish texnologiyasi, keys stadi texnologiyasi. Muammoli o'qitish texnologiyasi orqali o'quvchilar muammo qo'yish, uning mohiyatini tushunish, muammoning yechimini topish, uni bayon qilish orqali og'zaki nutq malakalari oshadi. Muammoli ta'limg jarayonida o'qituvchi o'quvchilar

o'rtasida fikrlar almashinishini boshqarish, ishonchli dalillar asosida o'z fikrida tura olish, to'liq bayon qila olish, muxolif tomonning fikrini munozara qilish, malakasini rivojlantirish, o'quvchini aktiv fikrlash faoliyatiga asoslash, masalani dolzarblashtirish, o'z fikrini bayon qilishnigini emas, balki boshqalarni ham eshitish mahoratini rivojlantirish, o'quvchilar bildirgan fikrlardan foydali axborotni olish va zarur xulosalar chiqarish va o'quvchilarda ixtirochilik, tadqiqotchilik, loyihalovchilik va shu kabi zaruruiy sifatlarni shakllantiradi. Keys metodi ham o'quvchilarning mavzuga tegishli hayotiy vazifani tashxis qilish, farazlarni ifodalash, muammolarni aniqlash, qo'shimcha axborotlarni yig'ish, farazlarga aniqlik kiritish va muammolarni yechish hamda ularni bajarishning aniq bosqichlarini modellashtirish imkonini beradi.

XULOSA

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng ta'limgohasiga e'tibor yanada kuchaydi. Ta'limgohasini ayniqsa chet tillarni o'rgatish yo'lida ko'plab islohotlar olib borildi. Bu islohotlarni "ta'limgoh to'g'risidagi qonun", "Kadrlash milliy dasturi", "Davlat ta'limgoh standartlari"ni qayta ko'rib chiqilib unga qo'shimcha va yangiliklar kiritilgani orqali orqali ko'rish mumkin. Bunday harakatlar chet til ta'limi oldiga qator talablar qo'ydi. Buning natijasida darsliklar, darsning noan'anaviy ko'rinishini tashkil etuvchi ko'rgazmali qurollar, interaktiv vositalar ishlab chiqildi. Shu bilan birga chet el pedagoglari bilan hamkorlik aloqalari o'rnatildi. O'quvchilarni tilni tez va oson o'rganishlari uchun bir, ikki, uch va ko'p tillik lug'atlar ishlab chiqildi.

Chet til o'rganish davr taqozosi bo'lib turgan ayni vaqtida barcha ta'limgoh muassasalarida ham chet tilini mukammal o'rganishga e'tibor berilmoqda. Hozirgi kunda maktabgacha ta'limgoh muassasalaridan tortib, to'oliy o'quv yurtlarida ham chet tillarini sifatli ko'rinishda o'rfatib borilmoqda. Buning uchun dars jarayonida o'qituvchi tomonidan pedagogik texnologiyalardan: ko'rgazmali qurollar, interaktiv vositalardan keng ko'lamda foydalanilmoqda. Chet til o'rgatish jarayoni o'ziga xos murakkab jarayondir. Shu sababli ham chet til o'rgatishda o'quvchilarga yuqorida keltirib o'tilgan pedagogik texnologiyalardan foydalanishimiz yuqori samara beradi. Bunday vositalar o'quvchilarning ham ruhiy, ham jismoniy faoliyatini harakatlantiradi. O'quvchilardagi dunyoqarash, fikrlash, tahlil qilish, hisoblash, solishtirish, kuzatish, xulosa chiqarish kabi sifatlarni shakllantirishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, bunday texnologik vositalar o'quvchilarda guruh va jamoa bo'lib ishslash ko'nikmalarini ham orttiradi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Karimov. I.A. Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch. –Toshkent. Ma’naviyat 2008 y.
2. Karimov. I.A. Yuksak bilimli va intelektual rivojlangan avlodni tarbiyalash mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti” mavzusidagi konferensiya materiallari. - Ma’rifat 2012 y.
3. Innovatsiya o’quv jarayonida ilmiy- metodik maqolalar to’plami.- Toshkent 2012 y.
4. O’zbekiston Respublikasini Ta’lim to’g’risidagi qonuni-Toshkent 2002y.
5. O’zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi.-Toshkent 2001 y.
- 6.O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Mirziyoyev. Sh 2017- yil 7-fevraldagi “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha harakatlar strategiyasi to’g’risida”gi PF-4947- sonli farmoni. O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami. -2017 yil 6-son 70- modda.
7. Jalolov J.J. chet til o’qitish metodikasi.- Toshkent 2012y.
8. Saidahmedov N. Pedagogik amaliyotida yangi texnologiyalarni qo’llash namunalari.- Toshkent 2000 y.
9. Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar.- Toshkent 2000 y.
10. Saydaliev S. Chet til o’rgatish metodikasidan ma’ruza matnlari. - Namangan 2002 y.
11. Saydaliev S.Chet til o’rgatish metodikasidan ma’ruza matnlari.- Namangan 2002.

12. Gerhard Neuner und Hans Hunfeld Chet til o'rgatish metodlari.- Namangan 2005.(nemischadan tarjima).
13. Mirolyubov , Rahmonov, Setlin O'rta maktablarda chet tili o'qitishning umumiyl metodikasi.- Toshkent o'qituvchi.
- 14.Фарберман. Б.Л. Педагогическая технология и проблемы ее использования.- Тошкент 2004.
- 15.Chet tillarni o'qitish zamonaviy texnologiyasi masalalari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari.- Toshkent2007.
16. Xorijiy tillarni o'rganish tarixi, bugun va istiqboli. Hududiy ilmiy-amaliy anjumanlari.-Andijon 2016.
- 17.Xorijiy tillarni yangi innovatsion pedagogic texnologiyalar asosida o'qitish muammolari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami.-Andijon 2015.
- 18.Tolipov. chet tili o'qitish metodikasi.- Toshkent 2005.

Internet saytlari.

1. [http// w.w.w. ziyonet. uz](http://w.w.w. ziyonet. uz).
2. [http//w.w.w. pedagog. uz](http://w.w.w. pedagog. uz)
3. [http// w.w.w. google translate.](http://w.w.w. google translate.)
4. [http// w.w.w. edu. uz.](http://w.w.w. edu. uz)

